

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI HUQUQNI MUHOFAZA QILISH
AKADEMIYASI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.24/2026.31.01.Yu.01.02. RAQAMLI ILMIY KENGASH**
O‘ZBEKISON RESPUBLIKASI JAMOAT XAVFSIZLIGI UNIVERSITETI

SEYTNAZAROV KURBANBAY REYIMBAYEVICH

**JINOYAT PROTSESSIDA TORTISHUV PRINSIPINI RO‘YOBGA
CHIQRISH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH**

12.00.09 – Jinoyat protsessi. Kriminalistika, tezkor-qidiruv huquqi, sud ekspertizasi

**Yuridik fanlar doktori (Doctor of Science) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2026

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора наук (DSc)

Content of the abstract of the dissertation of the Doctor of Science (DSc)

Seytnazarov Kurbanbay Reyimbayevich

Jinoyat protsessida tortishuv prinsipini ro'yobga chiqarish mexanizmini takomillashtirish.....3

Сейтназаров Курбанбай Рейимбаевич

Совершенствование механизма реализации принципа состязательности в уголовном процессе.....32

Seytnazarov Kurbanbai Reimbayevich

Improving the mechanism for implementing the adversarial principle in criminal proceedings.....65

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works.....70

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI HUQUQNI MUHOFAZA QILISH
AKADEMIYASI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.24/2026.31.01.Yu.01.02. RAQAMLI ILMIY KENGASH**
O‘ZBEKISON RESPUBLIKASI JAMOAT XAVFSIZLIGI UNIVERSITETI

SEYTNAZAROV KURBANBAY REYIMBAYEVICH

**JINOYAT PROTSESSIDA TORTISHUV PRINSIPINI RO‘YOBGA
CHIQRISH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH**

12.00.09 – Jinoyat protsessi. Kriminalistika, tezkor-qidiruv huquqi, sud ekspertizasi

**Yuridik fanlar doktori (Doctor of Science) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2026

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.2.DSc/Yu247 raqami bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.proacademy.uz) va “Ziyonet” Axborot-ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi:

Mirazov Davron Miragzamovich

yuridik fanlar doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Po‘latov Baxtiyor Xalilovich

yuridik fanlar doktori, professor

Kadirova Moxigul Xamitovna

yuridik fanlar doktori, dotsent

Bobomurodov Farxod Boymurotovich

yuridik fanlar doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot:

O‘zbekiston Respublikasi IIV akademiyasi

Dissertatsiya himoyasi O‘zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi huzuridagi Ilmiy darajalar beruvchi DSc.24/2026.31.01.Yu.01.02. raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil 17-sentabr kuni soat 15:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 100047, Toshkent shahar, Yunusobod tumani, Rixsiliy ko‘chasi, 9-uy. Tel.: (+99871) 202-04-96; e-mail: info@proacademy.uz).

Dissertatsiya bilan O‘zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (91-raqam bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100047, Toshkent shahri, Yunusobod tumani, Rixsiliy ko‘chasi, 9. Tel.: (+99871) 202-04-96.

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil 03-sentabr kuni tarqatildi.

(2026-yil 03-sentabrdagi 09-raqamli reestr bayonnomasi).



V. Karimov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
raisi, yuridik fanlar doktori, professor

Sh. I. Shayzakov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
kotibi, yuridik fanlar bo'yicha falsafa
doktori (PhD), dotsent

G. M. Shodiyev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
huzuridagi Ilmiy seminar raisi, yuridik
fanlar doktori, professor

KIRISH (fan doktori (DSc) dissertatsiyasining annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda tortishuv tamoyillariga asoslangan sud muhokamalari ulushining kamayishi va aybga iqrorlik jarayonlarining ko'payishi bo'yicha barqaror tendensiya kuzatilishi, jinoyat protsessidagi tortishuv prinsipining an'anaviy tushunchasining o'zgarayotganidan dalolat bermoqda. AQSHning Bureau of Justice Statistics va U.S. Sentencing Commission ma'lumotlariga ko'ra, so'nggi paytlarda jinoyat ishlarining 90-98% mazmunan sud jarayoni bilan emas, balki aybga iqrorlik to'g'risida kelishuvi (plea bargaining) tamomlanmoqda¹. Buyuk Britaniyada ushbu ko'rsatkich taxminan 60-70 foizni tashkil etadi². Shunga o'xshash tendensiyalar kontinental huquq tizimi mamlakatlarida ham kuzatilmoqda. Xususan Fransiyada 2004-yildan boshlab aybga iqrorlikning soddalashtirilgan shakli "Comparution sur reconnaissance préalable de culpabilité" tartibi amal qilmoqda³. CEPEJ hisobotiga ko'ra, Yevropada jinoyat ishlarini ko'rib chiqishning o'rtacha davomiyligi 167 kunni tashkil etib, bunda hukumat soddalashtirilgan tartibda ish yuritishni qo'llab-quvvatlaydi⁴. Shu bilan birga, UNODC ma'lumotlariga ko'ra, 2024-yilda dunyo bo'yilab qamoqda saqlanayotgan shaxslarning qariyb uchdan bir qismi sudni kutayotgan shaxslar maqomida qolmoqda⁵. Bu esa ularning tortishuv jarayonida to'laqonli ishtirok etish imkoniyatlarini obyektiv ravishda cheklaydi. World Justice Project ma'lumotlariga ko'ra, sudlarning mustaqilligi va taraflarning protsessual tengligini ta'minlash darajasida sezilarli farqlar saqlanib qolmoqda⁶. Mazkur omillar tortishuv prinsipini jinoiy odil sudlovining asosiy elementi sifatida o'rganishning dolzarbligini ta'kidlaydi.

Jahonda jinoyat ishlari bo'yicha odil sudlovning sifatini takomillashtirish maqsadida, sudning mustaqilligi, tortishuv tamoyillari va taraflarning protsessual tengligini mustahkamlashga qaratilgan ilmiy tadqiqotlarga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu pirovardida shaxs huquqlarini yanada to'liqroq ta'minlashga xizmat qiladi. Xususan, jinoiy ta'qibni amalga oshiruvchi organlarning protsessual-huquqiy maqomini qayta ko'rib chiqish va himoya tomonining protsessual kafolatlarini kengaytirish bo'yicha sezilarli natijalarga erishilmoqda. Shu bilan birga, xalqaro va milliy sud-tergov amaliyoti tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, hatto zamonaviy sharoitlarda ham ayblov va himoya manfaatlari o'rtasidagi muvozanat doimo ta'minlanmayapti, ayrim tortishuv institutlari esa uzuq-yuluq tarzda ishlamoqda. Isbotlash jarayonlarining yetarlicha tartibga solinmaganligi, protsessual normalarning to'liq emasligi va dalillarni baholashning yagona standartlari yo'qligi ko'pincha tortishuv tamoyilining buzilishiga va asossiz sud qarorlarining chiqarilishiga sabab bo'lmoqda. Bu esa mavjud muammolarni aniqlashga va xalqaro tajribani inobatga olgan holda ularni bartaraf etishning

¹ <https://bjs.ojp.gov/>; <https://www.ussc.gov/about/annual-report-2024>

² <https://www.nao.org.uk/wp-content/uploads/2024/12/ministry-of-justice-overview-2023-24.pdf>

³ <https://www.avocat-piperi-bastia.fr/categories/redaction-15970/articles/la-comparution-sur-reconnaissance-prealable-de-culpabilite-2371.html>

⁴ <https://www.coe.int/en/web/cepej/special-file>

⁵ UNODC, Prison Matters 2025: Global Prison Population and Trends; A Focus on Rehabilitative Environments (United Nations, 2025).

⁶ <https://worldjusticeproject.org/rule-of-law-index/downloads/WJPIndex2024.pdf>

samarali mexanizmlarini ishlab chiqishga qaratilgan jinoyat protsessida tortishuv tamoyilining amalga oshirilishini har tomonlama ilmiy tahlil qilish zaruratini keltirib chiqaradi.

Respublikamizda so‘nggi yillarda jinoiy sud ishlarini yuritishda tortishuv tamoyilini mustahkamlashga qaratilgan qator islohotlar amalga oshirildi. Bunda asosan tergov sudyasi instituti shakllantirilganligi¹, advokatura faoliyatini raqamlashtirilganligi², elektron vositalar (videoyozuv, “E-sud” tizimi, ish materiallariga onlayn kirish) joriy etilganligini³ alohida ta’kidlash joiz. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 14-maydagi PQ-3723-son qarori bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat va jinoyat-protsessual qonunchiligini takomillashtirish Konsepsiyasida jinoyat protsessida shaxs huquq va erkinliklarining ishonchli kafolatini ta’minlash mexanizmlarini takomillashtirishda advokatlarning protsessual huquq va vakolatlarini kuchaytirish orqali taraflarning o‘zaro tortishuv tamoyilini amalda ro‘yobga chiqarish, ularning haqqoniy mustaqilligini ta’minlash, shuningdek, jinoyat ishi bo‘yicha himoyachining ishtiroki shart bo‘lgan ishlarga oid asoslarni kengaytirish vazifasi belgilanganligi ham tadqiqot mavzusining dolzarbligidan darak beradi.

O‘zbekiston Respublikasining 2023-yil 27-sentabrdagi O‘RQ–869-son “Sud qarorlarining qonuniyligi, asosiligi va adolatliligini tekshirish instituti takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksiga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”, 2021-yil 28-iyuldagi O‘RQ–703-son “Sudlar to‘g‘risida”, 2022-yil 14-martdagi O‘RQ–759-son “O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi Qonunlari, 2024-yil 10-iyundagi PF-89-son “Tezkor-qidiruv hamda tergov faoliyatida shaxsning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini yanada kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2023-yil 16-yanvardagi PF–11-son “Odil sudlovga erishish imkoniyatlarini yanada kengaytirish va sudlar faoliyati samaradorligini oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni, 2018-yil 14-maydagi PQ-3723-son “Jinoyat va jinoyat-protsessual qonunchiligi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori va sohaga oid boshqa qonun hujjatlarining ijrosini amalga oshirishga muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining “I. Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

¹ “O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga shaxsning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini yanada kuchaytirishga qaratilgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, 28.01.2025-yildagi O‘RQ-1022-son/ <https://lex.uz/docs/7347837>;

² “Advokatura faoliyatiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 30.05.2022-yildagi PQ-263-son. <https://lex.uz/docs/6039334>

³https://www.undp.org/sites/g/files/zskgke326/files/migration/uz/un_uzb_E-SUD_Handbook.pdf

Dissertatsiya mavzusida xorijiy ilmiy tadqiqotlarning tahlili¹. Tortishuv prinsipini ro'yobga chiqarish, shaxs huquqlarining protsessual kafolatlarini ta'minlash, odil sudlovga bo'lgan huquqqa rioya etish va jinoyat sud ishlarini yuritishni takomillashtirish masalalari bo'yicha ilmiy tadqiqotlar AQSHning Harvard Law School, University of Pennsylvania Carey Law School, New York University School of Law, Yale Law School, Stanford Law School, University of California (Berkeley Law, UCLA School of Law), University of San Francisco School of Law, Indiana University Robert H. McKinney School of Law; Buyuk Britaniyaning University of Oxford Faculty of Law, University of Cambridge Faculty of Law, King's College London – The Dickson Poon School of Law, University College London (UCL Faculty of Laws); Germaniyaning Max Planck Institute for the Study of Crime, Security and Law, University of Freiburg, University of Cologne; Niderlandiyaning Leiden University, Maastricht University; Isroilning University of Haifa; Italiyaning University of Bologna; Fransiyaning Université Paris-Panthéon-Assas; Kanadaning University of Toronto Faculty of Law, Osgoode Hall Law School (York University); Singapurning National University of Singapore Faculty of Law; Gonkongning University of Hong Kong Faculty of Law; Avstraliyaning University of New South Wales, The University of Sydney Law School, Monash University Faculty of Law; Qozog'iston Respublikasining "Turan-Astana" universiteti, Maqsut Narikbayev University; shuningdek, O.E.Kutafin nomidagi MDYU, M.V.Lomonosov nomidagi MDU, Rossiya IIV Qozon yuridik instituti kabi yetakchi xorijiy ilmiy-tadqiqot markazlari va oliy ta'lim muassasalari tomonidan olib borilmoqda. Yetakchi xorijiy ilmiy markazlarda quyidagi tadqiqot natijalariga erishilgan: jinoyat protsessida taraflarning protsessual tengligini ta'minlashning zamonaviy konsepsiyalari ishlab chiqilgan (Harvard Law School, Yale Law School, University of Oxford, University of Cambridge); sudga qadar ish yuritish va sud muhokamasi bosqichlarida tortishuv prinsipini amalga oshirish mexanizmlari hamda surishtiruv va tergov organlari faoliyati ustidan sud nazorati masalalari tadqiq etilgan (University of Pennsylvania Carey Law School, New York University School of Law, Stanford Law School, Indiana University Robert H. McKinney School of Law); jinoyat sud ishlarini yuritishda ayblovlar va himoya taraflarining protsessual imkoniyatlari tengligini, sud mustaqilligini va himoyaga bo'lgan huquqning samarali amalga oshirilishini ta'minlashga doir ilmiy yondashuvlar shakllantirilgan (University of California Berkeley Law, UCLA School of Law, University of San Francisco School of Law, King's College London, UCL Faculty of Laws); gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, jabrlanuvchi va jinoyat protsessining boshqa ishtirokchilari huquqlarini himoya qilishning inson huquqlari bo'yicha xalqaro standartlar va xalqaro sud organlari amaliyotini hisobga oluvchi modellari ishlab chiqilgan (Leiden University, Maastricht University, University of Haifa, University of Bologna, University of Toronto, Osgoode Hall Law School); jinoyat sud ishlarini yuritishning raqamlashtirilishi, sun'iy intellekt, elektron odil sudlov, taraflarning masofaviy ishtiroki va raqamli dalillardan

¹ <https://www.universityofcalifornia.edu/>, <https://hls.harvard.edu/>, <https://www.law.upenn.edu/>, <https://www.usfca.edu/law>, <https://www.law.nyu.edu/>, <https://eioskuimvd.ru/>, <https://mephi.ru/>.

foydalanishning tortishuv tamoyili hamda shaxsning protsessual kafolatlariga ta'sirini o'rganishga doir kompleks tadqiqotlar o'tkazilgan (Max Planck Institute for the Study of Crime, Security and Law, National University of Singapore, University of Hong Kong, University of New South Wales, The University of Sydney, Monash University); sudga qdar ish yuritish bosqichida tortishuv asoslarini kengaytirish va jinoyat protsessiga raqamli texnologiyalarni joriy etish bo'yicha ilmiy tavsiyalar ishlab chiqilgan (M.Narikbayev universiti, "Turan-Astana" universiteti, Rossiya IIV Boshqaruv akademiyasi, O.E.Kutafin nomidagi MDYU, M.V.Lomonosov nomidagi MDU, Sankt-Peterburg davlat universiteti, Rossiya IIV Qozon yuridik instituti).

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Jinoyat protsessida tortishuv prinsipining ba'zi jihatlari O'zbekiston Respublikasida G'.A.Abdumajidov, B.X.Po'latov, Z.F.Inog'omjonova, M.A.Rajabova, F.M.Muxitdinov, B.B.Xidoyatov, U.A.Tuxtasheva, G.Z.To'laganova, D.J.Suyunova, S.M.Raxmonova, D.B.Bazarova, D.M.Mirazov, B.A.Mo'minov, I.R.Astanov, B.B.Murodov, N.N.Xayriyev, B.K.Xudaybergenov, Q.K.Matkarimov kabi olimlarning ilmiy ishlarida qisman o'z aksini topgan¹.

Xususan, jinoyat protsessida jabrlanuvchining huquqlarini himoya qilishni kuchaytirish masalalari S.M.Achilov tomonidan, jinoyat protsessi ishtirokchilari to'g'risidagi umumiy qoidalar Z.F.Inog'omjonova va G.Z.To'laganova asarlarida, guvoh immunitetini ta'minlash masalalari K.K.Matkarimov ishlarida, jinoyat-protsessual shakli F.M.Muxitdinov tadqiqotlarida, jabrlanuvchining huquqlari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash jinoyat protsessida D.R.To'rayeva tadqiqotlarida, jinoyat ishini qo'zg'atish bosqichida tortishuvni ta'minlashning ayrim jihatlari esa B.K.Xudaybergenov ilmiy izlanishlarida o'rganilgan.

Xorijiy olimlardan, jinoyat protsessida tortishuv prinsipini ta'minlash mavzusi doirasida L.A.Zashlyapin, I.A.Pikalov, A.I.Makarkin, R.V.Bagdasarov, N.A.Lukichev, T.A.Lotish, T.Yu.Gerasimova, Ye.V.Pavlova, A.M.Atakishi, D.K.Kanafin tadqiqotlar olib borgan.

Jinoyat protsessida tortishuv tamoyilini amalga oshirish masalalarini o'rgangan xorijlik protsessual huquqshunos olimlar orasida Kirchengast Tyrone, Munro Vanessa, Mekanje Gift Dorothy, Iemets Ivan singari tadqiqotchilar alohida e'tiborga loyiqdir.

Yuqorida nomlari keltirilgan jinoyat protsessual huquqi sohasidagi olimlar jinoyat protsessida tortishuvning ayrim masalalarini o'rganganlar. Biroq, jinoyat protsessida tortishuv prinsipining amalga oshirilishi bo'yicha har tomonlama va yaxlit tadqiqot olib borilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya mavzusi O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga kiritilib, "Jinoyat protsessida tortishuv prinsipini ro'yobga chiqarish mexanizmlarini takomillashtirish" mavzusidagi ilmiy tadqiqotlarining ustuvor yo'nalishlari doirasida amalga oshirilgan.

¹ Mazkur olimlar asarlarining to'liq ro'yxati dissertatsiyaning foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatida berilgan.

Tadqiqotning maqsadi jinoyat protsessida tortishuv prinsipini ro'yobga chiqarish mexanizmini takomillashtirishga qaratilgan taklif va tavsiyalarni ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot vazifalari:

jinoyat protsessida tortishuv prinsipini ro'yobga chiqarish mexanizmining ijtimoiy zaruriyatini tadqiq etish;

tortishuvlik prinsipining tarixiy rivojlanish bosqichlarini o'rganish;

jinoyat protsessida tortishuv prinsipini ro'yobga chiqarish mexanizmining huquqiy tartibga solinishi tahlil etish;

tergovga qadar tekshiruv davrida tortishuv prinsipini ta'minlash mexanizmlarini tadqiq qilish;

surishtiruv va dastlabki tergov bosqichida tortishuv prinsipini amalga oshirishning holatini o'rganish;

birinchi instansiya sudlarida jinoyat ishlarini ko'rishda tortishuv prinsipini amalga oshirilishini tahlil qilish;

yuqori instansiya sudlarida tortishuv prinsipini amalga oshirilishining xususiyatlarini tahlil qilish;

himoya subyektlarining jinoyat protsessi bosqichlarida tortishuv mexanizmida ishtirokini takomillashtirish istiqbolli yo'llarini belgilash;

jinoyat ishini yuritishga mas'ul bo'lgan davlat organlari va mansabdor shaxslarning faoliyatida tortishuv mexanizmining samaradorligini oshirish doir takliflar ishlab chiqish;

xalqaro va xorijiy tajribani qiyosiy o'rganib, jinoyat protsessida tortishuv prinsipini ro'yobga chiqarish mexanizmlarini takomillashtirishga qaratilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot obyekti jinoyat protsessida tortishuv prinsipini ro'yobga chiqarishni takomillashtirish bilan bog'liq ijtimoiy-huquqiy munosabatlar tizimi tashkil qiladi.

Tadqiqot predmeti bo'lib, jinoyat protsessual huquq normalari, huquqni qo'llash amaliyoti, ayrim xorijiy mamlakatlar protsessual qonunchiligi hamda yuridik fanda mavjud bo'lgan konseptual yondashuvlar va ilmiy-nazariy qarashlardan iborat.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot olib borishda tarixiy-huquqiy, qiyosiy-statistik tahlil, ijtimoiy so'rov, ilmiy manbalarni kompleks tadqiq etish, empirik tadqiqot, qonunchilikni sharhlash, tizimli-tuzilmaviy, rasmiy-mantiqiy, rasmiy-huquqiy mantiqiy, tizimli tahlil kabi usullar qo'llanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

masofadan monitoring qilish natijalarini rasmiylashtirish va ko'rib chiqishda e'tirozlarni o'rganib chiqish yakuni bo'yicha qabul qilingan qaror natijasidan qat'i nazar, bu haqda tashabbuskor davlat organi va tashkiloti yozma ravishda xabardor qilinishi shartligi asoslantirilgan;

himoya qiluvchi shaxs jinoyat protsessida ishtirok etishi munosabati bilan halok bo'lgan (vafot etgan) taqdirda, halok bo'lgan (vafot etgan) shaxsning oila a'zolariga himoya qilishni ta'minlash to'g'risida qaror qabul qiluvchi organning qaroriga ko'ra O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti mablag'lari hisobidan bir

yo‘la beriladigan nafaqa to‘lanishini belgilash zarurligi asoslantirilgan;

himoya qilinuvchi shaxsga jinoyat protsessida ishtirok etishi munosabati bilan mulkiy zarar yetkazilgan taqdirda, himoya qilishni ta‘minlash to‘g‘risida qaror qabul qiluvchi organning qaroriga ko‘ra O‘zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti mablag‘lari va qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan qoplanishi, keyinchalik ushbu mablag‘lar himoya qilinuvchi shaxsga mulkiy zarar yetkazilishida aybdor bo‘lgan shaxsdan undirilishi lozimligi asoslantirilgan;

shaxsning kasalligi, oilaviy ahvoli (oila a‘zolarining o‘limi yoki og‘ir kasalligi), shuningdek, boshqa holatlar, agar ular qonunda belgilangan muddatda apellyatsiya shikoyati berishni istisno etgan yoxud jiddiy tarzda qiyinlashtirgan bo‘lsa, uzrli holatlar deb topilishi mumkinligi asoslantirilgan;

ehtiyot chorasi sifatida qamoqda yoki uy qamog‘ida saqlanayotgan va apellyatsiya instansiyasi sudi majlisida qatnashish istagini bildirgan mahkumning ishtirokini ta‘minlash ushbu sudning majburiyati hisoblanishi, shuning uchun jinoyat ishi kelib tushgandan so‘ng mahkumning apellyatsiya instansiyasi sudida ishtirok etish istagini bildirgan yoki bildirmaganligi aniqlanishi va natijasiga qarab, uni sud majlisida bevosita yoki videokonferentsaloqa tizimidan foydalanish orqali ishtirok etish huquqi ta‘minlanishi lozimligi asoslantirilgan;

apellyatsiya, kassatsiya instansiyasi sudlari birinchi instansiya sudi tomonidan ishning haqiqiy holatlari qanchalik to‘g‘ri aniqlanganligini, jinoyat va jinoyat-protsessual qonuni normalari qanchalik to‘g‘ri qo‘llanilganligini tekshirishi asoslantirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari qo‘yidagilardan iborat:

O‘zbekistonda protsessual shaklni soddalashtirish yo‘nalishida ziddiyatli tendensiya kuzatilayotgani, ayni paytda jinoyat-protsessual munosabatlar ishtirokchilarining protsessual huquqlarini amalga oshirish uchun protsessual imkoniyatlar yetishmayotgani asoslantirilgan;

tergov sudyasi institutining jinoyat protsessini sudgacha bo‘lgan bosqichida taraflarning tengligi asosida ishtirokchilarning protsessual huquqlarini ta‘minlashga qaratilganligi asoslantirilgan;

jinoyat ishini asossiz va uzrsiz sabablarsiz cho‘zmasdan o‘z vaqtida ko‘rib chiqish maqsadida jinoyat-protsessual qonuniga yangi tamoyil - oqilona muddatlarga rioya qilish tamoyilini kiritish zarurligi asoslantirilgan;

aybni tan olish to‘g‘risidagi kelishuv instituti shartlarini qayta ko‘rib chiqish zarurati asoslantirildi;

jinoyat protsessida tortishuv tamoyilini amalga oshirish mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha keng qamrovli qonunchilik takliflari majmuasi ishlab chiqildi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalari milliy qonunchilikka, xalqaro standartlarga, rivojlangan xorijiy mamlakatlar tajribasiga, huquqni qo‘llash amaliyotiga, milliy va xorijiy olimlarning ilmiy-nazariy va amaliy qarashlariga, tadqiqot natijalarini davlat organlari tomonidan amaliyotga joriy etish va tasdiqlashga asoslanadi. Xulosalar, takliflar va tavsiyalar sinovdan o‘tkazildi va ularning natijalari yetakchi mahalliy va xorijiy nashrlarda e‘lon qilindi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundan iboratki, ilmiy-nazariy tahlil asosida olingan natijalardan ushbu sohadagi ilmiy tadqiqotlar, qonun ijodkorligi, huquqni qo'llash amaliyoti, jinoyat-protsessual qonunchiligini tadqiq qilish, qonunlarga sharhlar tayyorlashda foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundan iboratki, ulardan qonun ijodkorligi faoliyatida, shu jumladan normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish va ularga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish jarayonida, huquqni qo'llash amaliyotini takomillashtirishda, shuningdek oliy huquqiy ta'lim muassasalarida jinoyat-protsessual huquqi sohasidagi fanlarni o'qitishda foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Jinoyat protsessida tortishuv prinsipini ro'yobga chiqarish mexanizmini takomillashtirish bo'yicha olib borilgan ilmiy tadqiqot natijalari asosida:

masofadan monitoring qilish natijalarini rasmiylashtirish va ko'rib chiqishda e'tirozlarni o'rganib chiqish yakuni bo'yicha qabul qilingan qaror natijasidan qat'i nazar, bu haqda tashabbuskor davlat organi va tashkiloti yozma ravishda xabardor qilinishi shartligiga oid taklifdan Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 30-dekabrda 910-son qarori bilan tasdiqlangan "Davlat organlari va tashkilotlarining ochiqlikni ta'minlash sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan majburiyatlarga rioya etilishini masofadan monitoring qilish tartibi to'g'risida"gi Nizomning 31-bandini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri kotibiyati rahbarining o'rinbosarining 2025-yil 30-apreldagi № 09-09-30-sonli dalolatnomasi). Mazkur taklifning joriy etilishi jinoyat ishini yuritishga mas'ul bo'lgan davlat organlarining ochiqlikni ta'minlash sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan majburiyatlarga rioya etilishida qonuniylikni ta'minlashga xizmat qilgan;

himoya qilinuvchi shaxs jinoyat protsessida ishtirok etishi munosabati bilan halok bo'lgan (vafot etgan) taqdirda, halok bo'lgan (vafot etgan) shaxsning oila a'zolariga himoya qilishni ta'minlash to'g'risida qaror qabul qiluvchi organning qaroriga ko'ra O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti mablag'lari hisobidan bir yo'la beriladigan nafaqa to'lanishini belgilash to'g'risidagi taklifdan Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 21-fevraldagi 103-son qarori bilan tasdiqlangan "Jabrlanuvchilarni, guvohlarni va jinoyat protsessining boshqa ishtirokchilarini ijtimoiy himoya qilishni ta'minlash tartibi to'g'risida"gi Nizomning 4-bandini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri kotibiyati rahbarining o'rinbosarining 2025-yil 30-apreldagi № 09-09-30-sonli dalolatnomasi). Mazkur taklifning joriy etilishi jabrlanuvchilarni, guvohlarni va jinoyat protsessi boshqa ishtirokchilarining ijtimoiy himoyasini ta'minlashga xizmat qilgan;

himoya qilinuvchi shaxsga jinoyat protsessida ishtirok etishi munosabati bilan mulkiy zarar yetkazilgan taqdirda, himoya qilishni ta'minlash to'g'risida qaror qabul qiluvchi organning qaroriga ko'ra O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti mablag'lari va qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan qoplanishi, keyinchalik ushbu mablag'lar himoya qilinuvchi shaxsga mulkiy zarar yetkazilishida aybdor bo'lgan shaxsdan undirilishiga oid taklifdan Vazirlar

Mahkamasining 2025-yil 21-fevraldagi 103-son qarori bilan tasdiqlangan “Jabrlanuvchilarni, guvohlarni va jinoyat protsessining boshqa ishtirokchilarini ijtimoiy himoya qilishni ta’minlash tartibi to’g’risida”gi Nizomning 7-bandini ishlab chiqishda foydalanilgan (O’zbekiston Respublikasi Bosh vaziri kotibiyati rahbarining o’rinbosarining 2025-yil 30-apreldagi № 09-09-30-sonli dalolatnomasi). Mazkur taklifning joriy etilishi jinoyat protsessida ishtirok etishi munosabati bilan mulkiy zarar yetkazilgan shaxslarning mulkiy huquqlarini kafolatlashga xizmat qilgan;

shaxsning kasalligi, oilaviy ahvoli (oila a’zolarining o’limi yoki og’ir kasalligi), shuningdek, boshqa holatlar, agar ular qonunda belgilangan muddatda apellyatsiya shikoyati berishni istisno etgan yoxud jiddiy tarzda qiyinlashtirgan bo’lsa, uzrli holatlar deb topilishi mumkinligiga oid taklifdan O’zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2024-yil 25-martdagi “Jinoyat ishlarini apellyatsiya, kassatsiya tartibida ko’rish amaliyotining ayrim masalalari to’g’risida”gi 7-sonli Qarorining 4-bandining beshinchi qismini ishlab chiqishda foydalanilgan (O’zbekiston Respublikasi Oliy sudining 2025-yil 8-maydagi 07/15-49-sonli dalolatnomasi). Mazkur taklifning joriy etilishi yuqori instansiya sudlarida jinoyat protsessi ishtirokchilarining protsessual huquqlarining kafolatlarini takomillashtirishga xizmat qilgan;

ehtiyot chorasi sifatida qamoqda yoki uy qamog’ida saqlanayotgan va apellyatsiya instansiyasi sudi majlisida qatnashish istagini bildirgan mahkumning ishtirokini ta’minlash ushbu sudning majburiyati hisoblanishi, shuning uchun jinoyat ishi kelib tushgandan so’ng mahkumning apellyatsiya instansiyasi sudida ishtirok etish istagini bildirgan yoki bildirmaganligi aniqlanishi va natijasiga qarab, uni sud majlisida bevosita yoki videokonferensaloqa tizimidan foydalanish orqali ishtirok etish huquqi ta’minlanishi lozimligiga oid taklifdan O’zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2024-yil 25-martdagi “Jinoyat ishlarini apellyatsiya, kassatsiya tartibida ko’rish amaliyotining ayrim masalalari to’g’risida”gi 7-sonli Qarorining 11-bandining birinchi qismini ishlab chiqishda foydalanilgan (O’zbekiston Respublikasi Oliy sudining 2025-yil 8-maydagi 07/15-49-sonli dalolatnomasi). Mazkur taklifning joriy etilishi apellyatsiya instansiyasi sudi majlisida mahkumning ishtirokini ta’minlash orqali tortishuv prinsipining amalga oshirilishini takomillashtirishga xizmat qilgan;

apellyatsiya, kassatsiya instansiyasi sudlari birinchi instansiya sudi tomonidan ishning haqiqiy holatlari qanchalik to’g’ri aniqlanganligini, jinoyat va jinoyat-protsessual qonuni normalari qanchalik to’g’ri qo’llanilganligini tekshirishi haqidagi taklifdan O’zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2024-yil 25-martdagi “Jinoyat ishlarini apellyatsiya, kassatsiya tartibida ko’rish amaliyotining ayrim masalalari to’g’risida”gi 7-sonli Qarorining 19-bandining birinchi qismini ishlab chiqishda foydalanilgan (O’zbekiston Respublikasi Oliy sudining 2025-yil 8-maydagi 07/15-49-sonli dalolatnomasi). Mazkur taklifning joriy etilishi apellyatsiya, kassatsiya instansiyasi sud majlislarida ishning haqiqiy holatlari va qonun normalari qanchalik to’g’ri qo’llanganligini tekshirish orqali tortishuv prinsipining amalga oshirilishini takomillashtirishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 5 ta (2 ta

xalqaro, 3 ta respublika) ilmiy-amaliy konferensiyalarda muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 19 ta ilmiy ish (1 ta monografiya, 10 tasi dissertatsiya asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy jurnallarda, 3 tasi xorijiy nashrlarda, 5 tasi xalqaro va respublika ilmiy-amaliy konferensiyalari to'plamlarida) chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, 13 ta paragrafdan iborat to'rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 260 betni tashkil etgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** (doktorlik dissertatsiyasi annotatsiyasi) mavzuning dolzarbligi va zarurati, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlariga mosligi, dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi, muammoning o'rganilganlik darajasi, dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan ilmiy ta'lim va tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi bilan bog'liqligi, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obyekti va predmeti, usullari, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijasi, tadqiqot natijalarining ishonchliliigi, ilmiy va amaliy ahamiyati, joriy qilinishi, aprobatsiyasi, e'lon qilinganligi hamda dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Jinoyat protsessida tortishuv prinsipini ro'yobga chiqarish mexanizmining nazariy-huquqiy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida mazkur prinsipning nazariy-huquqiy asoslari, mazmun-mohiyati, uning jinoyat-protsessual huquq tizimidagi o'rni va ahamiyati, tarixiy rivojlanish bosqichlari hamda milliy va xalqaro huquqdagi nazariy asoslari hamda huquqiy tartibga solinishi har tomonlama tahlil qilingan.

Dissertant tomonidan mazkur bobda tortishuv prinsipining jinoyat protsessidagi ijtimoiy zarurati ilmiy jihatdan asoslangan. Shuningdek, tortishuv prinsipining ijtimoiy zarurligini ta'minlovchi omillar ham tizimli tahlil qilingan. Muallifning fikricha, mazkur omillar quyidagilardan iborat: 1) shaxsning huquq va erkinliklarini ta'minlash hamda buzilgan huquqlarni tiklashga xizmat qilish; 2) tergov, surishtiruv va sud bosqichlaridagi ziddiyatlarni qonuniy, xolis va har tomonlama hal etishga yordam berish; 3) aybsizlik prezumpsiyasini va “Xabeas korpus» institutini to'la amalga oshirish; 4) har bir protsessual qarorning qonuniy va asosli qabul qilinishiga erishish; 5) ayblov va himoya taraflari uchun teng huquqiy imkoniyatlarni yaratish. Muallif tortishuv prinsipi shaxs huquq va erkinliklarini ta'minlashning, odil sudlovga erishishning hamda qonun ustuvorligini ta'minlashning asosiy vositalaridan biri ekanligini aniq dalillar bilan ko'rsatib bergan. Bu prinsip jinoyat protsessining har bir bosqichida, xususan, sud ish yurituvida taraflarning teng huquqliligi va mustaqil faolligi orqali adolatli qaror qabul qilinishiga zamin yaratishi ta'kidlangan.

Muallifga ko'ra, tortishuv prinsipi – odil sudlovni amalga oshirishda taraflarning o'z fikrlarini erkin bildirish, ishda mavjud dalillarni taqqoslash, bahs-

munozaraga kirishish, muammoni tegishli muhokama qilish, dalillarni to'plash, tekshirish va baholashni tahlil qilish va o'rganib chiqish jarayonining huquqiy asosi sifatida ko'rilishi lozim. Ushbu tadqiqot doirasida jinoyat protsessidagi tortishuvchan modellar tahlili orqali mazkur modelning mohiyatini belgilaydigan asosiy protsessual elementlar aniqlangan. Dissertantning fikricha, jinoyat protsessida tortishuv prinsipining to'la ro'yobga chiqishi quyidagi huquqiy va amaliy asoslar bilan ta'minlanishi lozim: *birinchidan*, ayblov va himoya taraflarining protsessual tengligi ta'minlanishi; *ikkinchidan*, himoyachining samarali yuridik yordami uchun institutsional va huquqiy kafolatlar yaratilishi; *uchinchidan*, qonun oldida tenglik va barcha shaxslar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolati ta'minlanishi; *to'rtinchidan*, ishni hakamlar hay'ati ishtirokida ko'rib chiqish imkoniyatini joriy etish orqali sud muhokamasining xolisligi va ochiqqligini kuchaytirish; *beshinchidan*, ayblovni isbotlash majburiyati davlat organlari zimmasiga yuklanishi, ayblanuvchi shaxsni o'z aybini tan olishga yoki o'ziga qarshi ko'rsatuv berishga majbur etish holatlariga yo'l qo'yilmasligi lozim.

Shuningdek, dissertant tomonidan mazkur bobda milliy jinoyat-protsessual qonunchilikda tortishuv prinsipining huquqiy asoslari va uning amalga oshirilishidagi dolzarb muammolar tahlil qilingan. Jumladan, sud, prokuratura va tergov organlarining faoliyatida mazkur prinsipning to'la ro'yobga chiqmasligiga sabab bo'layotgan qonunchilikdagi bo'shliqlar va amaldagi nomutanosibliklar aniqlangan. Uning fikricha, mazkur bosqichda tergovchi va prokurorning ustun mavqei, himoyachi va gumon qilinuvchining cheklangan protsessual imkoniyatlari, tergov jarayonining yopiqqligi hamda taraflar tengligining ta'minlanmaganligi tortishuv prinsipining to'liq amal qilishiga xalal beradi. Muallif tomonidan mazkur kamchiliklarni bartaraf etish maqsadida ishni sudga qadar yuritish bosqichida ham tortishuv prinsipini ta'minlovchi protsessual kafolatlarni kuchaytirish zarurligi ilmiy asoslangan.

Tadqiqot doirasida tortishuv prinsipining tarixiy shakllanish bosqichlari tizimli va kompleks tarzda tahlil qilingan bo'lib, ushbu prinsipning rivojlanish jarayoni inqilobgacha bo'lgan davr, sovet davri hamda mustaqillik davri kabi yirik tarixiy bosqichlar kesimida o'rganilgan. Muallif ushbu tadrijiy jarayonni ilmiy asosda tahlil qilib, uni beshta asosiy bosqichga ajratgan va har bir bosqichning huquqiy va institutsional xususiyatlarini aniqlab bergan. Xususan, tadqiqotda Qadimgi Rim va Yunon huquq tizimlarida tortishuv elementlarining ilk shakllanish jarayonlari, shundan so'ng Rossiya imperiyasi va sovet huquq tizimidagi tortishuv prinsipining evolyutsiyasi va transformatsiya bosqichlari ilmiy-nazariy nuqtayi nazardan tahlil qilingan. Muallif mazkur jarayonlarning O'zbekiston Respublikasi huquq tizimiga ko'rsatgan ta'sirini ham huquqiy nuqtayi nazardan baholaydi.

Dissertantning ta'kidlashicha, tortishuv prinsipi ilmiy va amaliy jihatdan ingliz jinoyat protsessida shakllangan bo'lib, uning asosiy qoidalari 1679-yilda Angliya Konstitutsiyasida mustahkamlangan. Mazkur prinsip ishni sudga qadar yuritish va sud muhokamasi bosqichlarida jinoyat protsessi ishtirokchilari tengligini ta'minlovchi, ayblov va himoya tomonlarining tortishuvchan huquqiy imkoniyatlarini kafolatlovchi markaziy tamoyil sifatida namoyon bo'lgan. Shuningdek, 1789-yildagi burjua inqilobidan so'ng Fransiya jinoyat-protsessual

huquq tizimida tortishuv tipidagi jinoyat protsessi shakllanish jarayoni boshlanganligi qayd etilgan.

Tadqiqotda O'rta Osiyo, xususan, Buxoro amirligi, Xiva va Qo'qon xonliklarida jinoyat ishlarini yuritish shariat va urf-odat huquqi asosida amalga oshirilganligi, maxsus ayblov va himoya organlari mavjud bo'lmaganligi aniqlangan. Shu bois, ayblov va himoya funksiyalari jabrlanuvchi va ayblanuvchining yaqinlari zimmasiga yuklatilgan bo'lib, tortishuv prinsipi bu davrda to'laqonli ifodalanmagani ilmiy asoslangan xulosa sifatida bildirilgan.

Muallif tortishuv prinsipining elementlari — ayblov va himoya taraflari faoliyatining tengligi, sudning mustaqilligi va beg'arazligi, dalillarni baholashda xolislik hamda protsess ishtirokchilarining huquqlarining kafolatlarini ta'minlash mexanizmlari yuzasidan aniq ilmiy xulosalar bergan. Xususan, dissertantning fikricha, tahlil qilingan tortishuv prinsipining faqat sud bosqichiga tegishlilik ishini sudga qadar yuritish bosqichida tortishuvlik tamoyillari mavjud emas degan xulosaga kelish uchun asos bo'lmaydi. Zero, sudga qadar bosqichda ham advokat — himoyachi protsessning istalgan bosqichida qatnashishi, isbotlash jarayoni ishtirokchisi ekanligi, umuman aytganda keng huquqlarga egaligi tortishuv tamoyilining mavjudligidan darak beradi.

Bundan tashqari, tadqiqotning mazkur bobida himoya institutining tortishuv mexanizmini ta'minlashdagi roli alohida yoritilgan hamda jinoyat protsessida himoyachi ishtirok etishi shart bo'lgan holatlarni kengaytirish yuzasidan qonunchilikka takliflar ilgari surilgan. Dissertant fikricha, himoyachining dastlabki tergov va sud bosqichlarida faol ishtirok etishi tortishuv prinsipining amalga oshishi uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega. Himoyachining vakolatlarini kengaytirish, iltimosnoma va shikoyat berish huquqlarini amalda to'la ta'minlash, hamda advokatura faoliyatini mustaqil institut sifatida rivojlantirish mazkur prinsipning samarali ishlashini kafolatlovchi muhim mexanizmlardan hisoblanadi.

Dissertant mazkur bobda ayblov va himoya tarafining tortishuv prinsipi doirasidagi rolini tahlil qilish bilan cheklanib qolmasdan, balki sudning ushbu prinsipni amalga oshirishdagi o'rni va uning neytral (betaraf) protsessual pozitsiyasini saqlash masalalarini ham ilmiy jihatdan asoslab bergan. Muallifning fikricha, sudning vazifasi ayblov yoki himoya tomonidan qay birinidir qo'llab-quvvatlash emas, balki ular o'rtasidagi protsessual muvozanat va tenglikni ta'minlashdan iboratdir. Bu hol sud adolatini ta'minlash, tortishuvchan muhokamani xolislik asosida olib borish hamda har ikki tarafning dalil va pozitsiyalariga bir xil huquqiy imkoniyatlar bilan baho berishga xizmat qiladi.

Muallif B.A.Saidov, G'.A.Abdumajidov, F.M.Muhtidinov, S.A.Tumashov, M.S.Strogovich, I.L.Petruxin va I.Ya.Foyniskiy kabi huquqshunos olimlar qarashlarini tahlil etib, zamonaviy jinoyat protsessida sudning faol, biroq xolis rolini belgilab bergan. Unga ko'ra, sud taraflar o'rtasidagi tortishuvni ta'minlash, dalillarning maqbulligi va qonuniyligini baholash, iltimosnoma va shikoyatlarni ko'rib chiqish orqali odil sudlovni ta'minlovchi asosiy organ sifatida namoyon bo'ladi.

Dissertatsiyaning **“Jinoyat protsessida tortishuv prinsipini ro'yobga chiqarish mexanizmining zamonaviy holati”** deb nomlangan ikkinchi bobida

mazkur prinsipning amaliyotdagi qo'llanilishi, ishni sudga qadar yuritish va sud bosqichida uni ta'minlovchi protsessual mexanizmlar hamda ularni takomillashtirish masalalari o'rganilgan.

Dissertant tomonidan jinoyat protsessining dastlabki bosqichi — tergovga qadar tekshiruv davrida tortishuv prinsipini amalga oshirish muammolari ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Ushbu bosqich jinoyat ishini qo'zg'atish masalasini hal etishda, shaxs huquqlari va erkinliklarini himoya qilishda, ayblov va himoya taraflari o'rtasidagi protsessual muvozanatni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etishi ilmiy jihatdan asoslangan. Dissertant ta'kidlaganidek, huquqiy davlatda shaxs huquqlarini samarali himoya qilish tizimi — qonun ustuvorligining amaliy ifodasidir. Shu nuqtayi nazardan tergovga qadar tekshiruv institutini takomillashtirish va unda tortishuv prinsipini amalga oshirish masalasi jinoyat-protsessual islohotlarning markaziy yo'nalishlaridan biri sifatida namoyon bo'lishi lozim.

Muallif tomonidan mazkur bobda o'tkazilgan tahlillar shundan dalolat beradiki, har yili yuz minglab jinoyatga oid ariza va xabarlar kelib tushishiga qaramasdan, ularni tekshirishning yagona, aniq va huquqiy jihatdan mukammal protsessual mexanizmi hali to'liq shakllanmagan. Bu esa fuqarolarning huquqlari va manfaatlarini himoya qilish, hamda tortishuv muhitini ta'minlash borasidagi kafolatlarning zaiflashishiga sabab bo'lmoqda.

Dissertant tomonidan 2017-yildan buyon qabul qilingan bir qator muhim normativ-huquqiy hujjatlar, jumladan, 2017-yil 6-sentyabrdagi "Surishtiruv instituti takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi O'RQ-442-son Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 14-maydagi "Jinoyat va jinoyat-protsessual qonunchiligi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3723-sonli Qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yilning 10-avgust kuni qabul qilingan "Sud-tergov faoliyatida shaxsning huquq va erkinliklarini himoya qilish kafolatlarini yanada kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6041-sonli Farmoni hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli "2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmonlari tahlil qilinib, ularning tergovga qadar tekshiruv institutini takomillashtirish va shaxsning protsessual huquqlarini kafolatlashdagi ahamiyati ko'rsatib berilgan. Shu bilan birga, amalga oshirilayotgan islohotlarga qaramasdan, hanuzgacha tergovga qadar tekshiruv davomida shaxs huquqlarini ta'minlashda qator tizimli muammolar mavjudligi ilmiy jihatdan asoslangan.

Xususan, dissertantning fikricha, Jinoyat-protsessual kodeksning 39¹ va 39²-moddalarida tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organlar va ularning vakolatlari umumiy tarzda berilgan bo'lib, ular faoliyatining aniq chegaralari, mas'uliyati va protsessual majburiyatlari qonunchilikda yetarlicha belgilanmagan. Bu holat amaliyotda turli noaniqliklar va ayrim hollarda protsessual qonunbuzilishlarga sabab bo'lmoqda. Dissertant tomonidan taklif etilishicha, mazkur bo'shliqni bartaraf etish uchun JPKning 39²-moddasi yangi qism bilan to'ldirilib, tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi mansabdor shaxslar

faoliyati shaxs huquqlarini noqonuniy cheklash holatlariga yo‘l qo‘ymasligi shartligi qonunda mustahkamlanishi zarur.

Muallif tergovga qadar tekshiruv bosqichida tortishuv prinsipining amalga oshirishini cheklovchi asosiy omillardan biri sifatida taraflar o‘rtasidagi protsessual tenglikning ta‘minlanmaganligini keltiradi. Xususan, himoya tarafining huquqiy maqomi va vakolatlari aniq belgilanmagan holda ayblov tomonining ustunligi shakllanishi ehtimoli yuqori bo‘ladi. Bu hol tortishuv muhitining barqarorligi va xolisligini izdan chiqaradi.

Shuningdek, dissertant milliy qonunchilikdagi protsessual bo‘shliqlarni bartaraf etish maqsadida JPKning 329-moddasiga guvohlantirishni kechiktirib bo‘lmas tergov harakati sifatida kiritish, bu orqali jinoyat ishi qo‘zg‘atilgunga qadar ham dalillarni qonuniy yo‘l bilan to‘plash imkoniyatini ta‘minlashni taklif etgan. Xorijiy huquq tizimlarining (jumladan, AQSH, Fransiya va Germaniya misolida) tahlili asosida muallif shunday xulosaga kelganki, tergovga qadar tekshiruv bosqichida tortishuv prinsipini ro‘yobga chiqarishning asosiy sharti — himoya huquqining ta‘minlanishi va sud nazoratining faol amal qilishi hisoblanadi.

Dissertant mazkur bobda tergovga qadar tekshiruv bosqichi bilan cheklanib qolmasdan jinoyat protsessida tortishuv prinsipining surishtiruv va dastlabki tergov bosqichlarida amalga oshirilishi holatini ham ilmiy jihatdan chuqur tahlil qilgan. Muallif ta‘kidlaganidek, surishtiruv va dastlabki tergov bosqichlarida “betaraf hakam” — ya‘ni sud organi ishtirok etmaydi. Bu holda ayblov funksiyasi ustun bo‘lib, himoyachi va ayblanuvchi tomonidan to‘plangan ma‘lumotlar amalda yetarlicha ahamiyat kasb etmaydi.

Tadqiqotda aytilishicha, tergov jarayonida himoyachining vakolatlari cheklangan, iltimosnomalarning ko‘pincha rad etilishi, dalillarni mustaqil to‘plash imkoniyatining yo‘qligi tortishuv muhitining buzilishiga sabab bo‘lmoqda. Amaliyotda himoyachi dalillarni sud bosqichiga qadar emas, balki faqat sud tergov jarayonida taqdim etishga majbur bo‘ladi. Bu esa, sudgacha bo‘lgan bosqichdagi jarayonda ayblovning ustunligini ta‘minlaydi.

Dissertantning fikricha, mazkur holatni bartaraf etishda “tergov sudyasi” institutining joriy etilishi muhim ahamiyat kasb etadi. 2025-yil 1-yanvardan amalga kirgan mazkur institut sudga qadar jarayonda shaxs huquq va erkinliklarini himoya qilish, tergov va surishtiruv organlari faoliyati ustidan nazoratni amalga oshirish hamda taraflar o‘rtasidagi protsessual muvozanatni ta‘minlash imkonini berishi mumkin. Biroq, amalda tergov sudyasining vakolatlari hali ham cheklangan bo‘lib, u faqat ayrim turdagi iltimosnomalarni ko‘rib chiqish bilan kifoyalanmoqda.

Tadqiqotda milliy qonunchilikda quyidagi huquqiy mexanizmlarni joriy etish orqali jinoyat protsessidagi haqiqiy tortishuv muhitini ta‘minlash mumkinligi haqidagi fikrlar ilgari surilgan:

birinchidan, ishni sudga qadar yuritishning surishtiruv va dastlabki tergov bosqichida ayblov, himoya va ishni hal etish funksiyalarini aniq ajratish;

ikkinchidan, himoyachiga mustaqil dalil to‘plash, ekspertizalar tayinlash va guvohlarni so‘roq qilish huquqini berish;

uchinchidan, surishtiruv va dastlabki tergov bosqichlarida sud nazoratini kuchaytirish;

to'rtinchidan, prokurorning ayblovni tasdiqlash vakolatini qayta ko'rib chiqish, ya'ni u ham advokat kabi sudgacha dalillar bilan tanishib, ularning qonuniyligiga baho berish tizimini joriy etish.

Dissertant mazkur bobda ayblov va himoya funksiyalarining aralashib ketishi tortishuv prinsipining ro'yobga chiqishiga asosiy to'siqlardan biri ekanligini ta'kidlaydi. Prokuror bir vaqtning o'zida ham ayblovni amalga oshiradi, ham tergov ustidan nazorat qiladi. Shuning uchun ishni sudga qadar yuritish bosqichida ayblov, himoya va ishni hal etish funksiyalarini aniq ajratish — jinoyat protsessining konstitutsiyaviy asoslaridan biri sifatida qonun darajasida belgilab qo'yilishi zarur.

Dissertantning olib borgan sotsiologik so'rovnomasi natijalari ham mazkur xulosalarni tasdiqlaydi: so'rovda ishtirok etgan mutaxassislarning 75,2 foizi prokurorning ayblov xulosasini tasdiqlash amaliyotini bekor qilish va bu vakolatni sud nazorati tizimiga o'tkazish zarurligini bildirganlar. Ularga ko'ra, bu qadam ayblov va himoya taraflarining teng huquqli bo'lishini ta'minlab, tortishuv prinsipini sudgacha bo'lgan jarayonda ham to'liq amalga oshirish imkonini beradi.

Yuqoridagilarga asosan, dissertant mazkur bobda "ishni sudga qadar yuritishda tortishuv prinsipi" tushunchasiga mualliflik ta'rifini ishlab chiqqan hamda JPKning 25-moddasini yangi tahrirda bayon etish bo'yicha takliflarni ilgari surgan.

Muallif mazkur bobda sudda jinoyat ishlarini ko'rishda tortishuv prinsipini amalga oshirilishi bo'yicha tadqiqotlar olib borib, adolatli hukm chiqarish sharti, avvalo, sud ishlari yurituvini tortishuv prinsipiga asoslangan holda tashkil etish bilan chambarchas bog'liqligini, sud faoliyatining asosiy vazifasi – mustaqil va beg'araz sud oldida ayblov va himoya taraflarining teng huquqliligi hamda protsessual imkoniyatlarini ta'minlashdan iborat ekanligini ilmiy tahlillar asosida asoslantirgan. Dissertantning fikricha, zamonaviy jinoyat-protsessual huquqi nazariyasida tortishuvning mohiyati ikki markaziy element — "taraflarning tengligi" va "sudning mustaqilligi" bilan ifodalanadi. Ushbu ikki element sud muhokamasidagi barcha institutsional tamoyillarning mantiqiy poydevori hisoblanadi.

Dissertant sud jarayonida tortishuvni ta'minlovchi muhim elementlardan biri – sud ishtirokchilari o'rtasida to'liq axborot almashinuvini ta'minlash ekanligini ta'kidlaydi. Ayblov va himoya taraflari ishdagi barcha dalillar haqida ma'lumotga ega bo'lishi, biroq ish uchun ahamiyatsiz yoki maxfiy ma'lumotlar tartibini buzmasligi lozim. Bu holat tortishuv muhitining ochiqligi va qonuniyligini ta'minlaydi.

Tadqiqotda ayrim protsessualist olimlar (N.T.Kaipov, S.K.Kubatbekov, B.A.Akylbekov, B.E.Najiyev, E.K.Atambekov) fikrlari asosida jinoyat protsessida ayrim hollarda prokurorning o'z protsessual ustunligidan foydalanib, himoyachiga yoki sudlanuvchiga ruhiy bosim o'tkazishi holatlari tanqid qilinadi. Bu kabi holatlarda sud tortishuv muhitining izdan chiqmasligi uchun tegishli choralarni ko'rishi shart. Dissertantning fikricha, sudya va xalq maslahatchilari vakolatlarini kengaytirish, ayniqsa, sud muhokamasidagi tortishuv prinsipini amalga oshirishda muhim amaliy ahamiyatga ega.

Muallif amaldagi qonunchilikdagi bo'shliqlarni tahlil qilar ekan, JPKning 408-moddasida sudning tortishuvlikni ta'minlashga oid vakolatlari yetarli emasligini ta'kidlab, ushbu moddaga yangi qism kiritishni taklif etadi. Shu bilan birga, yangi

JPK loyihasida sudning tortishuv jarayonidagi bevosita rolini yanada aniqlashtirish, uning begʻarazligi va mustaqilligini kafolatlovchi huquqiy normalarni kuchaytirish taklifi ilgari surilgan. Sud jarayonida ishtirok etuvchi har bir shaxsning — davlat ayblovchisi, himoyachi, sudlanuvchi, jabrlanuvchi yoki guvohning huquq va majburiyatlarini aniq belgilash orqali tortishuv muhitining barqarorligi taʼminlanadi.

Dissertant tomonidan ilgʻor xorijiy davlatlar amaliyoti tahlili asosida ayblovdan voz kechish instituti ham tortishuvni taʼminlashning muhim elementi sifatida baholangan. Germaniya Federativ Respublikasi tajribasi misolida prokurorning ayblovdan voz kechish mexanizmi (“Einstellung des Verfahrens”) odil sudlov va tortishuv muhitini taʼminlovchi huquqiy vosita sifatida tavsiya etilgan. Muallif fikricha, bunday mexanizm milliy amaliyotda mavjud boʻlsa-da, uning samarali ishlashini taʼminlovchi huquqiy tartib hali yetarli darajada shakllanmagan.

Shuningdek, tadqiqotda sud muhokamasining har bir bosqichida tortishuv prinsipining amalga oshirilish holati tahlil qilingan. Sud tergov jarayonida taraflarning savol berish, dalil keltirish va ularni rad etish huquqidan toʻla foydalanishi, sud muzokarasida esa har bir ishtirokchining fikrini erkin bayon etishi mumkinligi taʼkidlangan. Dissertantning fikricha, sud muzokarasi tortishuv prinsipining amaliyotda toʻliq namoyon boʻladigan bosqichi, chunki unda taraflar oʻz pozitsiyalarini asoslash uchun barcha huquqiy vositalardan foydalanadi.

Dissertant mazkur bobda jinoyat ishlarini yuqori instansiya sudlarida koʻrib chiqish jarayonida tortishuv prinsipining amalga oshirilishi, uning huquqiy asoslari hamda amaldagi muammolarini ilmiy jihatdan tahlil qilar ekan, tortishuv prinsipi nafaqat birinchi instansiya sudi faoliyatida, balki apellyatsiya, kassatsiya va taftish bosqichlarida ham jinoiy odil sudlovning kafolati sifatida muhim ahamiyat kasb etishini taʼkidlaydi.

Yuqori instansiya sudlari faoliyati jinoyat ishlari boʻyicha qabul qilingan sud qarorlarining qonuniyligi, asosliligi va adolatliligini tekshirishga qaratilgan boʻlib, bu jarayonda ham tortishuv muhitini taʼminlash ustuvor ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotda taʼkidlanishicha, sud xatolari va ularni bartaraf etish mexanizmlari tizimi — yaʼni apellyatsiya, kassatsiya va taftish institutlari — jinoyat-protsessual qonunchilikda tortishuv prinsipini amalga oshirishning muhim huquqiy kafolatidir.

Dissertant fikricha, apellyatsiya va kassatsiya instansiyalarida ishni koʻrish tartibining oʻzi tortishuv muhitini taʼminlovchi koʻp bosqichli tizim sifatida shakllangan. Bu bosqichlarda prokuror va himoyachi chiqishlari, taraflar muzokarasi hamda sudning ularni tinglash majburiyati taʼminlanishi orqali adolatli bahs muhiti yaratiladi.

Amaldagi sud amaliyoti tahlili shuni koʻrsatadiki, yuqori instansiya sudlari faoliyatida tortishuv prinsipini toʻliq taʼminlashda qator huquqiy va tashkiliy omillar mavjud. Huquqiy omillar qatoriga sud muhokamasining shakllari, shikoyat berish doirasi, taraflarning huquqiy maqomi va ishtiroki shartlari kiradi. Tashkiliy omillar esa sud hayʼati tarkibi, ishni koʻrish muddatlari, dalillarni qayta tekshirish imkoniyati va sud tergov oʻtkazish tartibi bilan belgilanadi. Muallif taʼkidlaganidek, yuqori instansiya sudlarida ishni koʻrishda sud hayʼatining koʻpchilik tarkibda boʻlishi (uch nafardan besh nafargacha sudya) tortishuv muhitining xolisligini taʼminlashda muhim ahamiyatga ega.

Tadqiqotda taftish instansiyasi faoliyati ham alohida o'rganilgan. JPKning 56²-bobiga muvofiq, taftish instansiyasi sudi quyi sudlar qarorlarining qonuniyligi va asoslilikini nazorat qiladi. Dissertantning fikricha, bu bosqich sud qarorlari ustidan shikoyat qilishning so'nggi imkoniyati bo'lib, unda ham tortishuv prinsipi to'la ta'minlanishi lozim. Biroq amaliyotda taftish bosqichida himoyachi ishtirokining cheklanganligi, iltimosnomalarning to'liq ko'rib chiqilmasligi va sudning passiv pozitsiyada bo'lishi kabi muammolar mavjud. Bu holatlar tortishuv muhitining mazmunan to'liq ro'yobga chiqishiga to'sqinlik qiladi.

Dissertatsiyaning **“Xorij davlatlari jinoyat protsessida tortishuv prinsipini ro'yobga chiqarish mexanizmi”**ga bag'ishlangan uchinchi bobida jinoyat protsessida mazkur prinsipga oid xalqaro standartlar va ayrim xorijiy mamlakatlar, xususan, anglo-sakson va romano-german huquqiy oilasi mamlakatlarining jinoyat protsessida tortishuv prinsipining huquqiy tartibga solinishi qiyosiy tadqiq etilgan.

Tadqiqot davomida aniqlanishicha, anglo-sakson huquqiy oilasi mamlakatlarida tortishuv prinsipi jinoyat protsessida adolatli sud muhokamasini ta'minlovchi asosiy konstitutsiyaviy va protsessual tamoyil sifatida namoyon bo'ladi. Bu tizimlarda ayblov, himoya va ishni hal qilish vazifalari qat'iy ajratilgan bo'lib, sud faqat ishni bahs jarayonida taqdim etilgan dalillar asosida hal qiladi.

Dissertant tomonidan AQSH jinoyat protsessining huquqiy asoslari chuqur tahlil qilinib, “Miranda qoidasi”ning tortishuv prinsipini amalga oshirishdagi ahamiyati ilmiy jihatdan asoslangan. Unga ko'ra, jinoyat sodir etishda gumon qilingan shaxs so'roq qilingunga qadar o'z huquqlaridan xabardor qilinishi shartligi, so'zsiz ravishda himoyachi yordamidan foydalanish imkoniyati bilan ta'minlanishi ayblanuvchining tortishuvdagi teng pozitsiyasini kafolatlaydi.

Shu bilan birga, mazkur bobda AQSH sud amaliyoti misolida, xususan Areli Eskobar ishi tahlili orqali, sudning dalillarni to'liq va xolis baholashi tortishuvning asosiy mohiyatini tashkil etishi isbotlab berilgan. Muallifning fikricha, AQSHda sud organlarining dalillarni qayta ko'rib chiqish vakolati inson huquqlarini himoya qilishda tortishuv tizimining samaradorligini namoyon etadi.

Dissertant Buyuk Britaniya jinoyat-protsessual tizimini tahlil qilish orqali, tortishuv prinsipining tarixiy ildizlari 1215-yildagi “Magna Carta” va 1679-yildagi “Habeas Corpus Act” kabi huquqiy hujjatlarda mujassam ekanligini aniqlagan. Ushbu institutlar orqali shaxsning erkinligi va shaxsiy daxlsizligi huquqlari sud orqali himoya qilina boshlagan. Bu esa tortishuv tizimining huquqiy-demokratik asoslarini belgilab bergan.

Muallifning tahlil natijalari Britaniya sud tizimida ayblov va himoyaning qat'iy ajratilganligi, sud mustaqilligi hamda hakamlar hay'ati ishtirokidagi muhokama tartibining amal qilishi tortishuvning demokratik mazmunini ta'minlashini ko'rsatadi. Shuningdek, ayblanuvchining aybini tan olish orqali (“plea bargain”) sud muhokamasi jarayonini qisqartirish va protsessni samarali tashkil etish imkoniyatlari yaratilganligi ilmiy jihatdan asoslangan.

Dissertant tomonidan tortishuv tizimining qiyosiy tahlili asosida anglo-sakson huquqiy modellarida himoya institutining mustaqilligi va advokaturaning moddiy hamda protsessual kafolatlar bilan ta'minlanishi mazkur prinsipning to'la ro'yobga chiqishi uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligi to'g'risida ilmiy xulosa

qilingan.

Shu bilan birga, muallif romano-german huquqiy oilasiga mansub davlatlar, xususan, Germaniya Federativ Respublikasi, Fransiya, Rossiya Federatsiyasi, Ukraina va Yaponiya jinoyat-protsessual tizimlari misolida tortishuv prinsipining amaliy ifodasi hamda unga oid huquqiy mexanizmlarni tadqiq qilgan. Xususan, mazkur bobda Germaniya Federativ Respublikasi misolida prokurorning “beg‘araz taraf” sifatidagi protsessual mavqei ayblov va himoya o‘rtasidagi muvozanatni ta‘minlashga xizmat qilishi, shuningdek, mazkur muvozanat “tergov sudyasi” instituti orqali huquqiy jihatdan mustahkamlangani ko‘rsatib berilgan. Rossiya Federatsiyasida esa tortishuv prinsipi Konstitutsiya darajasida mustahkamlanib, jinoyat protsessida taraflarning dalil keltirish, ularni tekshirish va taqdim etishdagi teng huquqliligi ushbu prinsipning amaliy kafolati sifatida belgilangan. Ukraina jinoyat-protsessual qonunchiligida sudning betarafligi va taraflar teng huquqliligining qonun darajasida kafolatlanishi, Yaponiya tajribasida esa “pro-bono” tizimi orqali fuqarolarga bepul huquqiy yordam ko‘rsatishning himoya imkoniyatlarini kengaytirishdagi ahamiyati ilmiy asoslangan.

Dissertantning fikricha, romano-german huquq oilasiga mansub davlatlar jinoyat protsessida tortishuv prinsipini amalga oshirishda turli huquqiy va institutsional mexanizmlardan foydalanishlariga qaramasdan, ularning barchasi uchun umumiy bo‘lgan jihat — ayblov va himoya taraflarining protsessual tengligi hamda sudning betarafligi tamoyilining ustuvor ahamiyat kasb etishidir.

Dissertatsiyaning mazkur bobida ayrim Osiyo va islom mamlakatlarining jinoyat ishlari bo‘yicha sud ish yurituvda tortishuv institutining huquqiy tabiati, uning amalga oshirilish mexanizmlari va milliy qonunchiligimiz bilan qiyosiy tahlili ilmiy jihatdan asoslangan holda yoritilgan. Tadqiqot doirasida Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Indoneziya, Pokiston va Eron Islom Respublikasining jinoyat-protsessual qonunchiligi tahlil qilinib, ularda tortishuv prinsipining qonuniy asoslari, qo‘llanilishi va samaradorligi o‘rganilgan.

Xususan, Qozog‘iston Respublikasi misolida tortishuv prinsipi Jinoyat-protsessual kodeksning 23-moddasida “taraflarning raqobatbardoshligi va tengligi asosida ish yuritish” sifatida huquqiy jihatdan mustahkamlangani qayd etilgan. Qozog‘iston qonunchiligida mediatsiya va protsessual kelishuv orqali jinoyat ishlarini hal etish imkoniyati nazarda tutilgan bo‘lib, dissertantning fikricha, bu holat tortishuvning moslashuvchan modelini yaratishga xizmat qiladi. O‘zbekiston qonunchiligida esa mediatsiya instituti faqat fuqaroviy ishlar bilan cheklangani, jinoyat ishlarida esa tortishuvning faqat sud jarayonida amalga oshirilishi bilan farqlanadi.

Tadqiqotda keltirilishicha, Pokiston Respublikasi jinoyat-protsessual tizimida prokuror va himoyachining rolini qayta shakllantirish orqali tortishuv prinsipini mustahkamlashga qaratilgan islohotlar amalga oshirilgan. 2002-yildan keyin prokurorlar tergov jarayonida faol ishtirok eta boshlagan bo‘lib, bu tergovning shaffofligini va sud jarayonining adolatli o‘tishini ta‘minlashga xizmat qilgan. Himoyachiga keng protsessual huquqlar berilgan, jumladan, guvohlarni chaqirish, ularni so‘roq qilish va ayblov tomonining dalillariga qarshi qonuniy asoslar bilan bahs yuritish imkoniyati kafolatlangan.

Bundan tashqari, dissertatsiyaning mazkur bobida Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligiga a'zo davlatlar jinoyat-protsessual qonunchiligida tortishuv prinsipining huquqiy tabiati, uning amalga oshirish mexanizmlari hamda ayblov va himoya taraflarining protsessual tengligi masalalari qiyosiy tahlil qilingan bo'lib, muallifning ta'kidlashicha, mazkur davlatlar jinoyat-protsessual tizimi tarixiy jihatdan yagona manba — sovet huquq maktabiga asoslangan bo'lsa-da, hozirgi davrda ularda tortishuv institutining huquqiy mazmuni va amaldagi holati turlicha shakllanmoqda.

Dissertant tomonidan Ozarbayjon, Belarus, Turkmaniston va Tojikiston Respublikalarining amaldagi jinoyat-protsessual qonunchiligi chuqur o'rganilib, mazkur davlatlar barchasida tortishuv prinsipi alohida modda sifatida qonun darajasida mustahkamlangani aniqlangan. Xususan, Ozarbayjon Respublikasi JPKning 32-moddasi “jinoyat protsessida har ikki tomonning ishtiroki” tamoyilini belgilab, sud jarayonidagi tenglik va raqobat muhitini ta'minlashni nazarda tutadi. Belarus Respublikasi JPKning 24-moddasida “odil sudlovni taraflarning tortishuvi va tengligi asosida amalga oshirish” normasi, Turkmaniston Respublikasi JPKning 22-moddasida esa “odil sudlovni taraflarning raqobat va teng huquqliligi asosida amalga oshirish” qoidasi mustahkamlangan. Tojikiston Respublikasi JPKning 20-moddasi “raqobatbardoshlik va taraflarning tengligi” deb nomlanib, mazkur institutning nazariy va amaliy mazmunini belgilab beradi.

Muallifning fikricha, mazkur davlatlar qonunchiligida tortishuv prinsipini amalga oshirishning umumiy asoslari mavjud bo'lsa-da, uning sudga qadar bo'lgan bosqichdagi ta'minlanish darajasi turlichadir. Masalan, Ozarbayjon qonunchiligida “xususiy ayblovchi” instituti mavjud bo'lib, davlat ayblovchisi ayblovdan voz kechgan hollarda ham sud jarayonining tortishuvchanligini saqlash imkonini beradi. Tadqiqotchi tomonidan bu hol tortishuv prinsipini davlat aralashuvisiz ham ta'minlashning ilg'or shakli sifatida baholangan. Belarus va Turkmaniston Respublikasining jinoyat-protsessual tizimida ham himoyachining huquqlari keng miqyosda belgilangan bo'lib, himoyachi tergov harakatlari natijalariga nisbatan yozma izoh berish, bayonnomalarni baholash hamda dalillarning qonuniyligini tekshirish huquqiga ega. Dissertantning fikricha, bu huquqiy mexanizmlar tergov jarayonida ham tortishuv muhitining saqlanishiga xizmat qiladi. Ayni vaqtda, Turkmaniston Respublikasidagi qonunchilikning o'ziga xos jihati — gumon qilinuvchi va ayblanuvchiga ekspertiza tayinlashda o'z nomzodini ekspert sifatida ko'rsatish huquqining berilishi bo'lib, bu hol tortishuv prinsipining amaliyotda samaradorligini mustahkamlaydi.

Tadqiqotdagi tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, MDH davlatlarida tortishuv prinsipining to'laqonli amalga oshirilishi, ayniqsa sudga qadar bosqichda, hali to'liq ta'minlanmagan. Himoya tarafining dalil to'plashdagi imkoniyatlari cheklangan, ekspertiza tayinlashda ayblov tarafining ustunligi saqlanib qolgan. Shu bilan birga, muallifning fikricha, sud bosqichida tortishuv muhiti ancha barqarorlashib, taraflarning teng huquqliligi amaliy jihatdan ta'minlanmoqda.

Dissertatsiyaning **“Jinoyat protsessida tortishuv prinsipini ro'yobga chiqarish mexanizmini rivojlantirish yo'nalishlari”** deb nomlanuvchi to'rtinchi bobida himoya subyektlarining hamda jinoyat ishini yuritishga mas'ul bo'lgan

davlat organlari va mansabdor shaxslarning faoliyatida tortishuv mexanizmining samaradorligini oshirish masalalari atroflicha yoritilgan.

Dissertatsiyaning mazkur bobida jinoyat protsessida himoya funksiyasining samarali amalga oshirilishini ta'minlash, himoyachi huquqlarini kengaytirish hamda ularning huquqiy kafolatlarini mustahkamlash zarurati asoslab berilgan. Dissertant ta'kidlaganidek, jinoyat protsessidagi himoya funksiyasi tortishuv prinsipining asosiy elementlaridan biri hisoblanadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, ishni sudga qadar yuritish (tergovga qadar tekshiruv va tergov) bosqichida himoya subyektlarining huquqiy maqomi yetarlicha aniq belgilanmagan. Bu esa himoya huquqini to'liq amalga oshirishga va tortishuv muhitining shakllanishiga to'siq bo'lmoqda. Xususan, tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organlar faoliyatida himoyachi ishtirokining aniq protsessual tartibi belgilanmaganligi, ushlangan shaxsning huquqlari haqida to'liq ma'lumot berilmasligi, tergovga qadar tekshiruv materiallaridan nusxa olish huquqining mavjud emasligi kabi holatlar shaxsning huquq va erkinliklarini samarali himoya qilish imkoniyatini cheklaydi.

Dissertantning fikricha, himoya funksiyasining faol amal qilishi uchun ishni sudga qadar yuritish bosqichidagi protsessual munosabatlarda himoyachiga mutaxassis xulosasini so'rash, mustaqil dalil to'plash, guvohlarni so'roq qilish va ekspertizalar tayinlash huquqini berish zarur. Bunday huquqlar ayrim xorijiy davlatlar, jumladan Belarus va Moldova Respublikasi jinoyat-protsessual qonunchiligida muvaffaqiyatli tatbiq etilgan. O'zbekiston qonunchiligida esa mazkur huquqiy mexanizmlar mavjud bo'lmagani sababli himoyachi faoliyati ko'p hollarda deklarativ tusda bo'lib qolmoqda.

Tadqiqotda himoyachining dalil to'plash va taqdim etish borasidagi huquqlarining cheklanganligi hamda uning taqdim etgan dalillariga tergov organlari tomonidan baho berilishi amaliyotda tortishuv prinsipining mohiyatiga zid ekanligi asoslab berilgan. Dissertantning taklifiga ko'ra, himoyachi tomonidan to'plangan dalillar mustaqil yuridik kuchga ega bo'lishi va sudda ayblov tarafining dalillari bilan teng baholanishi kerak.

Sud bosqichida tortishuv prinsipining amalda to'la ro'yobga chiqishi ham dissertant tomonidan alohida o'rganilgan. Muallif ta'kidlaganidek, sud jarayonida taraflar — ayblov va himoya — teng protsessual huquqlarga ega bo'lsa-da, amaliyotda sudning faol pozitsiyasi, ayrim hollarda isbotlash jarayonida ishtirok etishi tortishuv muhitidagi sudning betarafligini buzishi mumkin. Shu sababli sudyaning isbot qilish ishtirokchisi sifatidagi rolini qisqartirish va uni faqat ishni hal etuvchi, xolis organ sifatida belgilash zarurligi asoslab berilgan.

Shuningdek, mazkur bobda jinoyat ishini yuritishga mas'ul bo'lgan davlat organlari va mansabdor shaxslarning faoliyatida tortishuv mexanizmining samaradorligini oshirish masalalari ilmiy-nazariy va amaliy nuqtayi nazardan atroflicha tahlil qilingan. Dissertantning ilmiy xulosasiga ko'ra, sudni ayblov va tergov funksiyalarini amalga oshiruvchi organlar qatoridan alohida tartibda ajratish zarur. Bu sudning mustaqil va betaraf subyekt sifatida faoliyat yuritishini ta'minlab, jinoyat protsessidagi protsessual muvozanatni mustahkamlaydi.

Tadqiqotda, shuningdek, prokurorning jinoyat ishini yuritishdagi roliga alohida

e'tibor qaratilgan. Amaldagi qonun hujjatlarida prokurorning tergovga qadar tekshiruv bosqichida qonunlarning aniq va bir xil ijro etilishi ustidan nazorati ochiq belgilanmaganligi qayd etilgan. Shu bois, dissertant JPKning 33–34-moddalariga tegishli o'zgartishlar kiritish orqali prokurorning tergovga qadar tekshiruvdagi nazorat vakolatlarini aniq belgilashni taklif etgan. Biroq, u prokurorda ayni vaqtda nazorat, ayblov va tergov funksiyalarining jamlanishi taraflar o'rtasidagi tortishuv muvozanatini buzishi, manfaatlar to'qnashuviga olib kelishi va himoya huquqini cheklashi mumkinligini ham ilmiy asosda ko'rsatib o'tgan.

Dissertant ishni sudga qadar yuritish bosqichidagi tergov va surishtiruv organlarining faoliyati tahlili ularning protsessual mustaqilligi yetarlicha ta'minlanmaganligini ko'rsatgan. Prokuror va idoraviy nazoratni amalga oshiruvchi rahbarlar tomonidan beriladigan ko'rsatmalarning chegaralari aniq belgilanmagani amalda tergovchining mustaqil qaror qabul qilish huquqini cheklamoqda. Shu sababli, dissertant JPKning 36 va 38¹-moddalariga tegishli o'zgartishlar kiritish orqali tergovchi va surishtiruvchining mustaqilligini ta'minlovchi kafolatlarni mustahkamlashni taklif etgan.

Muallif tergov sudyasi faoliyatini ishni sudga qadar yuritish bosqichida jinoyat protsessidagi tortishuv mexanizmini muvozanatlashtirishda muhim qadam sifatida baholagan. Qiyosiy tahlillar orqali Qozog'iston, Rossiya va boshqa davlatlar tajribasi o'rganilib, tergov sudyalariga berilgan keng protsessual vakolatlar — surishtiruvchi, tergovchi va prokuror harakatlarini nazorat qilish, shikoyatlarni ko'rib chiqish, dalillarni taqdim etish va baholashda ishtirok etish huquqlari — tortishuv prinsipining amaliy mazmunini ta'minlashga xizmat qilayotgani ta'kidlangan. Shu asosda, dissertant O'zbekistonda ham tergov sudyasi vakolatlarini kengaytirish zarurligi to'g'risidagi fikrlarni ilgari surgan.

Tadqiqotda, shuningdek, ishni sudga qadar yuritish bosqichida himoya tarafining shikoyat va iltimosnoma berish huquqini samarali amalga oshirishning muhimligi qayd etilgan. Xususan, dalillarni nomaqbul deb topish haqidagi iltimosnomalarning prokuror yoki tergov organiga emas, balki xolis organ — tergov sudyasiga taqdim etilishi shaxsning konstitutsiyaviy huquqlarini himoya qilishning ishonchli usuli sifatida baholangan.

Shunday qilib, dissertatsiyada himoya tomoni hamda jinoyat ishini yuritishga mas'ul bo'lgan davlat organlari va mansabdor shaxslar faoliyatida tortishuv prinsipini ro'yobga chiqarishning institutsional, protsessual va tashkiliy asoslarini takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqilgan. Bu takliflar milliy jinoyat-protsessual qonunchilikni isloh qilish, sud va tergov organlari faoliyatini demokratlashtirish hamda fuqarolarning huquq va erkinliklarini samarali himoya qilishga qaratilgan.

XULOSA

Mavzuni tadqiq etish natijasida quyidagi umumnazariy xulosalar, qonun hujjatlarini takomillashtirishga oid takliflar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi:

I. Ilmiy-nazariy xulosa va tavsiyalar:

1. Tortishuv prinsipining quyidagi mualliflik ta'rifi ishlab chiqildi: **Jinoyat sud ishlarini yuritishdagi tortishuv prinsipi** – bu ayblov, himoya va jinoyat ishini hal etish funksiyalarining protsessual jihatdan ajratilishini, taraflarning o'z huquqiy pozitsiyasini himoya qilishdagi mustaqilligini, ularning dalillarni to'plash, taqdim etish, tekshirish va baholash bo'yicha teng protsessual imkoniyatlarini, shuningdek, sud va jinoyat ishlarini yuritishga mas'ul bo'lgan davlat organlari va mansabdor shaxslarning taraflarga qonun bilan berilgan protsessual huquqlar hamda qonuniy manfaatlarni amalga oshirishi uchun shart-sharoit yaratish majburiyatini ta'minlaydigan jinoyat sud ishlarini yuritishning asosiy tamoyilidir.

2. Tortishuv prinsipining ijtimoiy zaruriyati jinoiy sud ishlarini yuritishda shaxs huquq va erkinliklarini ro'yobga chiqarishda, jinoyat ishini yurishga mas'ul bo'lgan mansabdor shaxslarning o'zini o'zini tiyib turishini ta'minlashda, "Xabeas korpus" institutini ro'yobga chiqarishda, protsessual qarorlarning qonuniyligi va asoslantirilganligini ta'minlashda nomayon bo'ladi.

3. Tortishuv prinsipi faqat sud bosqichida emas, balki jinoyat protsessining barcha bosqichlarda ta'minlanishi shartligi to'g'risida xulosaga kelindi.

4. Sud jarayonida tortishuvning ta'minlanishida sud mustaqilligi va betarafligi muhim shart sifatida qaralishi lozimligi to'g'risida xulosaga kelidi.

5. Tortishuv prinsipi faqat protsessual mexanizm sifatida emas, balki huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati poydevori bo'lgan inson huquqlarini himoya qilishning ijtimoiy-gumanistik kafolati sifatida ham namoyon bo'ladi. Bu prinsip orqali davlatning fuqaro oldidagi huquqiy mas'uliyati amaliy jihatdan namoyon bo'ladi. Shaxsning sha'ni, qadr-qimmat, erkinligi va daxlsizligini ta'minlash – bugungi O'zbekistonda amalga oshirilayotgan sud-huquq islohotlarining ustuvor yo'nalishidir. Tortishuv prinsipi shunday huquqiy muhit yaratishga xizmat qiladiki, unda har bir fuqaro o'zini qonun oldida teng, adolatli munosabat obyekti sifatida his etadi.

6. Jinoyat protsessining sudgacha bo'lgan bosqichlarida tortishuv prinsipini institutsional jihatdan mustahkamlash uchun qonunchilikka aniq va amaliyotga yo'naltirilgan o'zgartishlar kiritilishi zarur. Jumladan, "tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi shaxs" tushunchasini JPKda mustahkamlash, ishtirokchilarning aniq protsessual maqomini belgilash, dalil to'plash va baholashda himoya tarafiga ham teng imkoniyatlar berish, guvohlantirish, ekspertiza tayinlash, shikoyat berish va shikoyatlarni sud tomonidan ko'rib chiqish imkoniyatlarini huquqiy kafolatlar bilan ta'minlash talab etiladi. Bu choralar tortishuv prinsipini deklarativ emas, balki amalda to'laqonli amalga oshirilishiga xizmat qiladi.

7. Xalqaro huquqiy tajribalar – "Miranda qoidasi" va "Xabeas korpus" instituti – tortishuv prinsipining sudgacha bosqichlardagi mustahkamlanishini inson huquqlari himoyasi nuqtayi nazaridan uzviy bir qism sifatida ko'rsatadi. Mazkur xalqaro huquqiy standartlarni milliy qonunchilikka implementatsiya qilish, insonning erkinligi, daxlsizligi, sud nazorati va advokat ishtirokining kafolatlarini mustahkamlash orqali O'zbekistonda ham huquqiy davlat talablariga muvofiq sud-huquq tizimini shakllantirish mumkinligi to'g'risida xulosaga kelindi.

8. Himoyachining jinoyat protsessining barcha bosqichlarida, xususan,

sudgacha bo'lgan jarayonlarda majburiy ishtirokini ta'minlash – tortishuv prinsipining funksional asosidir. Shu bois, himoyachi ishtirok etishi shart bo'lgan holatlar va himoyachidan voz kechish asoslari o'rtasidagi qarama-qarshiliklar muvofiqlashtirilishi, himoya huquqining samarali amalga oshishiga to'sqinlik qiluvchi holatlar bartaraf etilishi lozim.

9. Sun'iy intellekt va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi tortishuv tamoyilining mohiyatini o'zgartirmay, balki uni amalga oshirish shakllarini o'zgartiradi. Jinoiy sud ishlarini yuritishni raqamlashtirish sharoitida tortishuv tamoyili yangi mazmun kasb etadi. Bu nafaqat tomonlarning protsessual tengligi, balki ularning raqamli dalillar, axborot resurslari va sun'iy intellekt texnologiyalaridan teng foydalanishini ta'minlaydigan raqamli tengligini ham anglatadi. Faqat ushbu shartga rioya qilingan taqdirdagina sun'iy intellektdan foydalanish shaxs huquqlarining protsessual kafolatlarini mustahkamlash hamda jinoyat sudlovining samaradorligini oshirish vositasi bo'lib xizmat qilishi mumkin.

II. O'zbekiston Respublikasi jinoyat-protsessual qonunchiligini takomillashtirishga oid takliflar:

1. Amaliyotda haqiqiy taraflarning teng huquqli ekanligini va tortishuv sharoitlarini yaratish, surishtiruv va dastlabki tergov bosqichida gumonlanuvchi, ayblanuvchi va himoyachi faoliyatida to'siqlarni olib tashlash va uning protsessual huquqlarini kengaytirish juda muhimdir. Shu munosabat bilan, Jinoyat-protsessual kodeksining 25-moddasi nomi va uning birinchi qismini quyidagicha yangilab bayon etish taklifi ilgari suriladi:

25-modda. Jinoiy sud ishlarini yuritishda tortishuv

Dastlabki tergov, surishtiruv, birinchi instansiya sudining sud majlisida, shuningdek ishlar yuqori sudlarda ko'rilayotganda ish yuritish taraflarning o'zaro tortishuvi asosida amalga oshiriladi.

Jinoyat sudlov ishlarini yuritish ayblovi va himoya taraflarining tortishuvi hamda teng huquqliligi prinsipi asosida amalga oshiriladi. Ayblovi, himoya va ishni sud tomonidan hal qilish bir-biridan ajratilgan bo'lib, turli organlar va mansabdor shaxslar tomonidan amalga oshiriladi.

Aybni isbotlash majburiyati ayblovni ilgari surayotgan organlarga, sudga yesa - davlat ayblovlarga yuklatiladi.

Himoyachi guvoh, gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi, mahkum, oqlangan shaxsni himoya qilishda qonunda nazarda tutilgan va qonunga xilof bo'lmagan barcha vositalari va usullaridan foydalanishi mumkin.

Sud taraflarning o'z protsessual majburiyatlarini bajarishlari va ularga berilgan huquqlarni amalga oshirishlari uchun zarur shart-sharoitlar yaratishi shart.

Jinoyat protsessida ishtirok yetuvchi taraflar protsessual teng imkoniyatlarga ega. Sud protsessual hal qiluv qarorini taraflarning har biri teng asosda ishtirok etishi ta'minlangan dalillar bilangina asoslaydi.

Tomonlar o'z nuqtay-nazarini, uni himoya qilish usullari va vositalarini mustaqil ravishda tanlaydilar.

Ish sudga ko'rilayotganda ayblash, himoya qilish va ishni hal qilish vazifalari bir-biridan alohida bajarilib, aynan bir organ yoki aynan bir mansabdor shaxs zimmasiga yuklatilishi mumkin yemas.

Birinchi instansiya sudida ish yuritish faqat ayblov xulosasi yoki ayblov dalolatnomasi yoxud tibbiy yo'sindagi majburlov choralari qo'llash uchun ishni sudga yuborish to'g'risidagi qaror mavjud bo'lganda boshlanishi mumkin.

Davlat va jamoat ayblovchilari, sudlanuvchi, voyaga yetmagan sudlanuvchining qonuniy vakili, himoyachi, jamoat himoyachisi, shuningdek jabrlanuvchi, fuqaroviy da'vogar, fuqaroviy javobgar va ularning vakillari sud majlisida taraflar sifatida ishtirok etadilar va dalillar taqdim yetish, ularni tekshirishda qatnashish, iltimos bilan murojaat qilish, ishning to'g'ri hal yetilishi uchun ahamiyatga molik har qanday masala bo'yicha o'z fikrlarini bildirishda teng huquqlardan foydalanadilar.

Sud ayblov yoki himoya tarafida turmaydi hamda ularning biron-bir manfaatlarini ifodalamaydi.

Sud xolislik va beg'arazlikni saqlagan holda taraflar protsessual majburiyatlarini bajarishlari va berilgan huquqlarini amalga oshirishlari uchun zarur sharoitlar yaratib beradi.

3. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 408-moddasi yangi qism bilan to'ldirish va uni quyidagi tahrirda bayon etish taklifi ilgari suriladi:

“Raislik qiluvchi sud majlisiga rahbarlik qiladi, xolislik va beg'arazlikni saqlagan holda odil sudlov manfaatlarini ko'zlab, taraflar tengligini ta'minlash uchun ushbu Kodeksda nazarda tutilgan hamma choralarni ko'radi, ishning holatlarini xolisona va to'liq tekshirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratadi, ishga aloqasi bo'lmagan holatlarni sud muhokamasiga kiritmaydi”.

4. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksining 48-moddasini ushlangan shaxs gumon qilinuvchi maqomiga tenglashtirilganidan kelib chiqib, tergovga qadar tekshiruv davomida to'plangan materiallar bilan tanishish huquqini ta'minlash maqsadida quyidagi jumlar bilan to'ldirish taklif etiladi:

“tergovga qadar tekshiruv tamom bo'lganidan so'ng tergovga qadar tekshiruvning barcha materiallari bilan tanishib chiqish hamda undan zarur ma'lumotlarni yozib olish, materiallar va hujjatlardan texnika vositalari yordamida o'z hisobidan ko'chirma nusxalar olish yoki ulardagi ma'lumotlarni o'zga shaklda qayd etish”.

5. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksining 53-moddasini himoyachining tergovga qadar tekshiruv davomida to'plangan materiallar bilan tanishish huquqini ta'minlash maqsadida quyidagi jumlar bilan to'ldirish taklif etiladi:

“... tergovga qadar tekshiruv tamom bo'lganidan so'ng tergovga qadar tekshiruvning barcha materiallari bilan tanishish hamda undan zarur ma'lumotlarni yozib olish, materiallar va hujjatlardan texnika vositalari yordamida o'z hisobidan ko'chirma nusxalar olish yoki ularda ko'rsatilgan ma'lumotlarni o'zga shaklda qayd etish...”

6. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksining 331-moddasining uchinchi qismini himoyachining jinoyat ishini qo'zg'atish to'g'risidagi qaror bilan tanishish huquqini ta'minlash maqsadida quyidagi tahrirda

bayon etish lozim:

“Jinoyat ishini qo‘zg‘atish to‘g‘risidagi qarorning ko‘chirma nusxasi ushbu ishning tergov qilinishi ustidan nazoratni amalga oshirishi lozim bo‘lgan prokurorga hamda ma‘lumot uchun ushbu ishda himoyachi sifatida ishtirok etayotgan shaxsga yuboriladi”.

7. O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksining 338-moddasining birinchi qismini gumon qilinuvchi hamda himoyachining jinoyat ishini qo‘zg‘atish to‘g‘risidagi qaror ustidan shikoyat qilish huquqini to‘liq ta‘minlash maqsadida quyidagi tahrirda bayon etish lozim:

“Tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organ mansabdor shaxsining, surishtiruvchining, tergovchining jinoyat ishini qo‘zg‘atish to‘g‘risidagi qarori ustidan prokurorga, prokurorning jinoyat ishi qo‘zg‘atish to‘g‘risidagi qarori ustidan yuqori turuvchi prokurorga shikoyat qilinishi mumkin”.

8. O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksini jinoyat ishi qo‘zg‘atish to‘g‘risidagi qaror ustidan shikoyat qilishning aniq muddatini belgilash maqsadida quyidagi mazmundagi 338¹-modda bilan to‘ldirish lozim:

“338¹-modda. Jinoyat ishi qo‘zg‘atish to‘g‘risidagi qaror ustidan shikoyat qilish muddati

Tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organ mansabdor shaxsining, surishtiruvchining, tergovchining, prokurorning jinoyat ishini qo‘zg‘atish to‘g‘risidagi qarori ustidan ushbu qaror haqida gumon qilinuvchi yoki himoyachi tegishli tarzda xabardor qilingan paytdan boshlab ikki sutka ichida shikoyat qilinishi mumkin”.

9. O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksini 320²-moddasining uchinchi qismini quyidagi tahrirda bayon etish lozim:

“Tergovga qadar tekshiruv surishtiruvchi, tergovchi yoki prokuror tomonidan ham olib borilishi mumkin. Tergovga qadar tekshiruv mazkur shaxslar tomonidan ushbu Kodeksning 41-bobida belgilangan qoidalarga muvofiq ushbu Kodeksning 39²-moddasida nazarda tutilgan vakolatlardan foydalanib amalga oshiriladi”.

10. O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksining 87-moddasining ikkinchi qismini himoyachining dalillar to‘plashdagi huquqlarini kengaytirish maqsadida quyidagicha quyidagi jumlar bilan to‘ldirish taklif etiladi:

“Ushbu dalillar: ishga taalluqli axborotga ega bo‘lgan shaxslarni ularning roziligi bilan so‘rovdan o‘tkazish hamda yozma tushuntirishlar olish; davlat organlariga va boshqa organlarga, shuningdek korxonalar, muassasalar va tashkilotlarga so‘rov yuborish hamda ulardan ma‘lumotnomalar, tavsifnomalar, tushuntirishlar va boshqa hujjatlarni olish, gumon qilinuvchining, ayblanuvchining roziligi bilan himoyani amalga oshirish munosabati bilan yuzaga keladigan, maxsus bilimlarni talab qiladigan masalalarni tushuntirish uchun mutaxassislarning yozma fikrini so‘rash orqali to‘planishi mumkin. Bunda himoyachi o‘zi himoya qilayotgan shaxsning manfaatlarini ko‘zlab ma‘lumotlar olayotganda shaxslarga

qonunga xilof ravishda ta'sir ko'rsatishga haqli emas".

11. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksining 33, 34-moddasini prokurorning tergovga qadar tekshiruvda O'zbekiston Respublikasi qonunlarining aniq va bir xilda ijro etilishi ustidan nazoratni amalga oshirish vakolatini mustahkamlash maqsadida quyidagi tahrirda bayon etish taklif etiladi:

“33-modda. Prokuror

O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori va unga bo'ysunuvchi prokurorlar **tergovga qadar tekshiruv**, surishtiruv va dastlabki tergov bosqichlarida O'zbekiston Respublikasi qonunlarining aniq va bir xilda ijro etilishi ustidan nazoratni amalga oshiradi.

Prokuror **tergovga qadar tekshiruv**, surishtiruv va dastlabki tergov bosqichlarida qonunning buzilishini, kim tomonidan sodir etilganligidan qat'i nazar, bartaraf etish uchun qonunda nazarda tutilgan chora-tadbirlarni o'z vaqtida ko'rish shart".

“34-modda. Prokurorning vakolatlari

Prokuror **tergovga qadar tekshiruv**, surishtiruv va dastlabki tergov bosqichlarida ushbu Kodeksning 243, 382 — 388, 558, 589-moddalarida nazarda tutilgan vakolatlarni amalga oshiradi".

12. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksining 36-moddasining **ikkinchi** hamda **uchinchi** qismini tergovchining mustaqilligini amalda to'laroq ta'minlash uchun quyidagi tahrirda bayon etish taklif etiladi:

“36-modda. Tergovchining vakolatlari

Tergovchi tergovning yo'nalishi va tergov harakatlarini yuritishga oid barcha qarorlarni, prokuror **hamda sudning** ruxsatini olish qonunda nazarda tutilgan hollarni istisno etganda, mustaqil ravishda qabul qiladi.

Tergovchi ... **ko'p voqeali jinoyat ishlari bo'yicha ayblovning ayrim voqealari yuzasidan muayyan shaxsga nisbatan to'plangan dalillarni ayblov xulosasi tuzish uchun yetarli deb e'tirof etsa, shu voqealar bo'yicha tergovni tamomlash va ishni sudga yuborish** haqidagi ko'rsatmalariga rozi bo'lmasa, o'z e'tirozlarini yozma ravishda bayon qilgan holda ishni yuqori turuvchi prokurorga taqdim etishga haqlidir. Bunday hollarda quyi turuvchi prokurorning ko'rsatmasini yuqori turuvchi prokuror o'z qarori bilan yo bekor qiladi yoki ish bo'yicha tergov yuritishni boshqa tergovchiga topshiradi".

13. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksining 38¹-moddasining **ikkinchi** hamda **uchinchi** qismini tergovchining mustaqilligini amalda to'laroq ta'minlash uchun quyidagi tahrirda bayon etish taklif etiladi:

“38¹-modda. Surishtiruvchining vakolatlari

Surishtiruvchi surishtiruvning yo'nalishiga oid barcha qarorlarni mustaqil ravishda qabul qiladi, bundan qonunda prokuror **yoki sudning** ruxsatini olish nazarda tutilgan hollar mustasno.

Surishtiruvchi prokurorning ishni qo'shimcha tergovga qaytarish, **ko'p voqeali jinoyat ishlari bo'yicha ayblovning ayrim voqealari yuzasidan muayyan shaxsga nisbatan to'plangan dalillarni ayblov dalolatnomasini tuzish uchun yetarli deb e'tirof etsa, shu voqealar bo'yicha tergovni tamomlash va ishni sudga yuborish** to'g'risidagi ko'rsatmalariga rozi bo'lmasa,

o'z e'tirozlarini yozma ravishda bayon qilgan holda ishni yuqori turuvchi prokurorga taqdim etishga haqlidir. Bunday hollarda yuqori turuvchi prokuror quyi turuvchi prokurorning ko'rsatmasini o'z qarori bilan yo bekor qiladi yoki ish bo'yicha surishtiruv yuritishni boshqa surishtiruvchiga topshiradi".

14. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksining 39¹-moddasining nomini quyidagicha tahrirda bayon etish hamda ushbu moddaning birinchi qismi 7-bandini chiqarish lozim:

"39¹-modda. Tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organlar **va mansabdor shaxslar**".

III. Sud-tergov amaliyotini takomillashtirishga doir tavsiyalar:

1. Jinoyat ishini yuritishga mas'ul bo'lgan davlat organlari va mansabdor shaxslarning faoliyatida tortishuv mexanizmining samaradorligini oshirish bo'yicha quyidagilar takliflar ilgari suriladi:

O'zbekiston Respublikasi JPKda sudning ayblov va tergov funksiyalarini amalga oshiruvchi organlardan alohida bobga ajratilishi maqsadga muvofiqdir;

Shaxsga nisbatan jinoiy ta'qib boshlangandan (yoxud tergovga qadar tekshiruv boshlangandan) toki tergov yakunlanib, jinoyat ishi sudga chiqqunga qadar bo'lgan davr oralig'ida turli ko'rinishlarda sudning sanksiyalar va majburlov choralari qo'llash masalasini ko'rib chiqish vakolati hamda ayblov va himoya tarafiging harakatlarini muvofiqlashtirib va nazorat qilib turuvchi, ularning o'z huquq va vakolatlarini amalga oshirishlari uchun zaruriy shart-sharoitlarni yaratib beruvchi mansabdor shaxslarning faoliyati sud nazorati emas, balki sud kontroli hisoblanadi;

Ishni sudga qadar yuritish bosqichida sud kontroli joriy etilishi himoya tomonning tortishuv prinsipidagi o'rni va roli oshishiga xizmat qiladi;

Garchi tergov sudyasi instituti orqali mutlaq tortishuv prinsipini ta'minlab bo'lmasa ham, lekin amalda ayblov tomoni mansabdor shaxslarining vakolatlarini suiiste'mol qilinishiga, ularning jinoyat protsessidagi ustun mavqeyiga qisman chek qo'yish mumkin;

Ishni sudga qadar yuritish bosqichida to'plangan dalillarni nomaqbul deb topish to'g'risdagi iltimosnoma surishtiruvchi, tergovchi yoki prokurorga emas, balki to'g'ridan-to'g'ri tergov sudyasiga berilishi shaxs huquq va erkinliklarini ta'minlashda samarali bo'lishi mumkin;

Jinoyat protsessida tergov, ayblov va nazorat funksiyalari bitta shaxs - prokurorda jamlanishi taraflar o'rtasida tenglikni ta'minlashdagi jiddiy to'siqlardan biridir;

O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori va unga bo'ysunuvchi prokurorlar tomonidan nafaqat surishtiruv va dastlabki tergov bosqichlarida, shuningdek, tergovga qadar tekshiruvda ham O'zbekiston Respublikasi qonunlarining aniq va bir xilda ijro etilishi ustidan nazorat amalga oshiriladi;

Tergovchi, surishtiruvchilar o'zining oldiga qo'yilgan vazifalarni amalga oshirishlari hamda jinoyat ishi bo'yicha dastlabki tergov va surishtiruvni to'liq va xolisona yuritishning zaruriy sharti - bu protsessual mustaqillik hisoblanadi;

O'zbekiston Respublikasida olis safarda bo'lgan dengiz kemalarining kapitanlari mavjud emasligi hamda ularga tergovga qadar tekshiruv o'tkazish

vakolatini berish zarurati mavjud emasligini inobatga olib, O'zbekiston Respublikasi JPKning 39¹-moddasining birinchi qismi 7-bandini chiqarish hamda ushbu moddaning nomini "Tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organlar va mansabdor shaxslar" deb o'zgartirish lozim.

2. Sudgacha bo'lgan bosqichlarda tortishuv prinsipining amal qilishini ta'minlash uchun tergov sudyasi institutidan yanada samaraliroq foydalanish va tergov organlarining vakolatlarini qayta ko'rib chiqish zarur. Ayblov, himoya va ishni hal qilish funksiyalarini ayrimlashtirish, prokuror va tergov organlarining funksiyalarini muxtor va mustaqil subektlar sifatida ko'rib chiqish, himoya tarafining dalillar to'plash, shikoyat berish, mustaqil ekspertiza tayinlash kabi huquqiy imkoniyatlarini kengaytirish tortishuvning chinakam amalga oshirishini ta'minlaydi.

3. Sudgacha bo'lgan jinoyat protsesslarida taraflar – ayblovchi va himoyachi – teng huquqlarga ega bo'lishlari uchun himoya funksiyasining institutsional kafolatlari mustahkamlanishi zarur. Mavjud amaliyotda dalillarni to'plash, baholash va ular asosida qaror qabul qilish ayblov tarafining vakolatida bo'lib qolmoqda. Bu holat sudning yetakchi va betaraf rolini cheklaydi hamda himoya tarafining faol ishtirokini pasaytiradi. Shu sababli, himoyachiga mustaqil dalillar to'plash, alohida ekspertiza tayinlash va shikoyat berish kabi huquqiy vositalar bilan ta'minlanishi shart. Bu orqali taraflar o'rtasida tenglik ta'minlanadi va sud jarayoni real tortishuv shaklida kechadi.

4. Sudgacha bo'lgan bosqichlarda tortishuv prinsipini amalga oshirish uchun "tergov sudyasi" instituti joriy etilgan. Hozirgi kunda surishtiruvchi, tergovchi va prokuror faqat ayblovni ilgari surishga yo'naltirilgan bo'lib, ular tomonidan ish yuzasidan qarorlar qabul qilinadi. Bu jarayonda "haqqoniy hakam" sifatida qatnashuvchi betaraf sud organi mavjud emas. Shu nuqtayi nazardan, "tergov sudyasi" – ya'ni sud nazoratini amalga oshiruvchi, qarorlarni qonuniylik nuqtayi nazaridan baholovchi protsessual subyekt – joriy qilinishi orqali tortishuv prinsipining sudgacha bo'lgan jarayonlarda ham amalga oshirilishi ta'minlanadi.

5. Tortishuv prinsipi xalqaro hujjatlarda ham e'tirof etilgan prinsip ekanidan kelib chiqqan holda, bu prinsip nafaqat birinchi instansiya sudlari majlislarida va yuqori sudlarda ishlar ko'rilyotganda amal qilishi, balki jinoyat protsessining barcha bosqichlarida, jumladan sudgacha bo'lgan jarayonlarda ham amal qilinishi ta'minlanishi kerak. Buni inobatga olgan holda jinoyat ishini sudga qadar yuritishda tortishuv prinsipining mohiyatini aniqlash uchun unga quyidagicha mualliflik ta'rifi berish taklifi ilgari suriladi:

Ishni sudga qadar yuritishda tortishuv prinsipi – bu taraflar mavjudligi, ularning ko'rib chiqilayotgan ish yuzasidan asoslantirilgan nuqtayi nazarlaridan iborat bo'lgan ma'lumotlarni faol ravishda va tenglik asosida sudga taqdim etishlari, sudning esa ish yuzasidan yig'ilgan ushbu ma'lumotlarni dalil sifatida baholash hamda ayblov va himoya tarafi ustidan sud nazoratini amalga oshirish faoliyatidir.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.24/2026.31.01.Yu.01.02 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ ПРАВООХРАНИТЕЛЬНОЙ АКАДЕМИИ
РЕСПУБЛИКА УЗБЕКИСТАН**

**УНИВЕРСИТЕТ ОБЩЕСТВЕННОЙ БЕЗОПАСНОСТИ
РЕСПУБЛИКА УЗБЕКИСТАН**

СЕЙТНАЗАРОВ КУРБАНБАЙ РЕЙИМБАЕВИЧ

**СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕХАНИЗМА РЕАЛИЗАЦИИ ПРИНЦИПА
СОСТЯЗАТЕЛЬНОСТИ В УГОЛОВНОМ ПРОЦЕССЕ**

12.00.09 – Уголовный процесс. Криминалистика,
оперативно-розыскное право и судебная экспертиза

АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора юридических наук (Doctor of Science)

Ташкент – 2026

Тема диссертации доктора наук (Doctor of Science) зарегистрирована Высшей аттестационной комиссией при Академии наук Республики Узбекистан за № B2023.2.DSc/Yu247.

Диссертация выполнена в Университете общественной безопасности Республики Узбекистан.

Автореферат диссертации размещен на трех языках (узбекском, русском, английском (резюме)) на веб-сайте Научного совета (www.proacademy.uz) и Информационно-образовательном портале «Ziyonet» (www.ziyonet.uz).

Научный консультант:

Миразов Даврон Мирагзамович
доктор юридических наук, профессор

Официальные оппоненты:

Пулатов Бахтиёр Халилович
доктор юридических наук, профессор

Кадирова Мохигуль Хамитовна
доктор юридических наук, доцент

Бобомуродов Фарход Боймуратович
доктор юридических наук, доцент

Ведущая организация:

Академия МВД Республики Узбекистан

Защита диссертации состоится на заседании Научного совета по присуждению ученых степеней DSc.24/2026.31.01.Yu.01.02 при Правоохранительной академии Республики Узбекистан 17 сентября 2026 года в 15:00 часов (Адрес: 100047, г. Ташкент, улица Рихсилий, 9. Тел.: (99871) 202-04-96; e-mail: info@proacademy.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Правоохранительной академии Республики Узбекистан (зарегистрировано за № 91). (Адрес: 100047, г. Ташкент, улица Рихсилий, 9. Тел.: (99871) 202-04-96.

Автореферат диссертации разослан 03 сентября 2026 года.
(протокол реестра № 09 от 03 сентября 2026 года).



Д.К.Каримов
Председатель Научного совета
по присуждению ученых степеней
доктор юридических наук, профессор

И.И.Ша
Научный секретарь Научного
по присуждению ученых степеней,
доктор философии и юридических наук (PhD), доцент

Г.М.Шодиев
Председатель Научного семинара
при Научном совете по
присуждению ученых степеней,
доктор юридических наук, профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (DSc))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В мире прослеживается устойчивая тенденция к снижению доли полноценных состязательных судебных разбирательств и росту процедур признания вины, что свидетельствует о трансформации классического понимания принципа состязательности в уголовном процессе. По данным Bureau of Justice Statistics и U.S. Sentencing Commission в США, около 90–98 % уголовных дел за последнее время завершается соглашением о признании вины (plea bargaining), а не судебным процессом по существу¹. В Великобритании этот показатель составляет примерно 60–70 %². Аналогичные тенденции отмечаются и в странах континентальной системы права: во Франции с 2004 г. действует процедура Comparution sur reconnaissance préalable de culpabilité, обеспечивающая упрощённое признание вины³. Согласно отчёту CEPEJ, средняя продолжительность рассмотрения уголовных дел в Европе достигает 167 дней, что стимулирует использование ускоренных процедур⁴. Одновременно UNODC указывает, что в 2024 году около одной трети всех заключённых в мире находятся в статусе лиц, ожидающих суда, что объективно ограничивает их возможности для полноценного участия в состязательном процессе⁵. По данным World Justice Project, сохраняются значительные различия в уровне независимости судов и обеспечении процессуального равноправия сторон, что подчёркивает актуальность исследования принципа состязательности как ключевого элемента уголовного правосудия⁶.

В мире также уделяется повышенное внимание научным исследованиям, направленным на совершенствование качества уголовного правосудия посредством укрепления состязательных начал, независимости суда и процессуального равноправия сторон, что в конечном итоге способствует более полному обеспечению прав личности. В частности, значительные результаты достигаются в пересмотре процессуально-правового статуса органов, осуществляющих уголовное преследование, и расширении процессуальных гарантий стороны защиты. Вместе с тем анализ международной и национальной судебной практики свидетельствует, что даже в современных условиях не всегда обеспечивается баланс интересов обвинения и защиты, а отдельные институты состязательности функционируют фрагментарно. Недостаточная регламентация процедур доказывания, неполнота процессуальных норм и отсутствие унифицированных стандартов оценки доказательств нередко приводят к

¹ <https://bjs.ojp.gov/>; <https://www.ussc.gov/about/annual-report-2024>

² <https://www.nao.org.uk/wp-content/uploads/2024/12/ministry-of-justice-overview-2023-24.pdf>

³ <https://www.avocat-piperi-bastia.fr/categories/redaction-15970/articles/la-comparution-sur-reconnaissance-prealable-de-culpabilite-2371.html>

⁴ <https://www.coe.int/en/web/cepej/special-file>

⁵ UNODC, Prison Matters 2025: Global Prison Population and Trends; A Focus on Rehabilitative Environments (United Nations, 2025).

⁶ <https://worldjusticeproject.org/rule-of-law-index/downloads/WJPIndex2024.pdf>

нарушению принципа состязательности и вынесению необоснованных судебных решений. Всё это обуславливает необходимость комплексного научного анализа реализации принципа состязательности в уголовном процессе, направленного на выявление существующих проблем и выработку эффективных механизмов их устранения с учётом международного опыта.

В последние годы в нашей республике был проведен ряд реформ, направленных на укрепление принципа состязательности в уголовном судопроизводстве. Следует особо отметить, что в основном сформирован институт следственного судьи, цифровизирована деятельность адвокатуры, внедрены электронные средства (видеозапись, система «E-sud», онлайн-доступ к материалам дела). Также в Концепции совершенствования уголовного и уголовно-процессуального законодательства Республики Узбекистан, утвержденной постановлением Президента Республики Узбекистан от 14 мая 2018 года №ПП-3723, поставлена задача практической реализации принципа состязательности сторон путем усиления процессуальных прав и полномочий адвокатов в совершенствовании механизмов обеспечения надежных гарантий прав и свобод личности в уголовном процессе, обеспечения их подлинной независимости, а также расширения оснований для дел, в которых участие защитника является обязательным, что свидетельствует об актуальности темы исследования.

Исследование диссертации определённым образом способствует реализации следующих нормативно-правовых актов: Законов Республики Узбекистан «О внесении изменений и дополнений в Уголовно-процессуальный кодекс Республики Узбекистан в связи с усовершенствованием института проверки законности, обоснованности и справедливости судебных решений» от 27 сентября 2023 года № ЗРУ-869, «О судах» от 28 июля 2021 года № ЗРУ-703, «О внесении изменений и дополнений в отдельные законодательные акты Республики Узбекистан» от 14 марта 2022 года № ЗРУ-759, а также Указов Президента Республики Узбекистан «О мерах по дальнейшему усилению гарантий надёжной защиты прав и свобод личности в оперативно-розыскной и следственной деятельности» от 10 июля 2024 года № УП-89, «О дополнительных мерах по дальнейшему расширению доступа к правосудию и повышению эффективности деятельности судов» от 16 января 2023 года № УП-11, Постановление «О мерах по кардинальному совершенствованию системы уголовного и уголовно-процессуального законодательства» от 14 мая 2018 года и других нормативно-правовых актов, относящихся к данной сфере.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики. Диссертация выполнена в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий республики II. «Формирование системы инновационных идей в социальном, правовом, экономическом, культурном, духовном и образовательном развитии информированного общества и демократического государства и способы их реализации».

Обзор зарубежных научных исследований по теме диссертации¹.

